

**Jumaniyozova Muhabbat
Abdullayeva Adolat**

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA
SINF DAN TASHQARI
ISHLARNI TASHKIL QILISH**

(Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar ssenariylari)

**TOSHKENT
2017**

Mazkur metodik qo‘llanmada boshlang‘ich ta‘limda sinfdan tashqari ishlarni, xususan, ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlarni tashkil qilish va samarali o‘tkazish yo‘llari bayon qilingan. Unda turli yo‘nalishda o‘tkaziladigan bayram va tadbirlarning ssenariylari jamlangan.

Metodik qo‘llanma boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari hamda shu yo‘nalishda ta‘lim olayotgan talabalar, barcha qiziquvchilar uchun mo‘ljallangan.

Tuzuvchilar:

Muhabbat Jumaniyozova – f.f.n., dots.

Adolat Abdullayeva – talaba

Taqrizchilar:

Nuquljon Karimova- Xorazm viloyati Xiva shahridagi 5-son umumta‘lim boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Anorgul Atajonova – UrDU “Boshlang‘ich va maktabgacha ta‘lim metodikasi” kafedrası dotsenti, f.f.n.

SO‘Z BOSHI

Hozirgi globallashuv davrida fan va madaniyatning eng so‘nggi yutuqlari asosida kelajagimiz bo‘lgan yosh avlodni hayotga tayyorlashning samarali shakl va uslublari keng joriy etilmoqda. Binobarin, jamiyatda yuksak ma‘naviy fazilatlarini kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish, yoshlarni boy madaniy merosimiz, tarixiy an‘analarimizga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqlol g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning hal qiluvchi omilidir.

Boshlang‘ich ta‘lim uzluksiz ta‘limning asosiy bo‘g‘ini sifatida yosh avlod ta‘lim-tarbiyasida muhim o‘rin tutadi. Yoshlarni ma‘naviy barkamol inson ruhida tarbiyalashda sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarning ham ahamiyati katta.

Yosh avlodni ma‘naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy, ma‘naviy-tarixiy an‘analariga, urf-odatlarini hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalarni ishlab chiqish, amalda joriy etish ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni tashkil qilish orqali namoyon bo‘ladi. Bu o‘rinda boshlang‘ich ta‘limda o‘tkaziladigan ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlarning, turli tarixiy sanalarga bag‘ishlangan bayram kechalarining ahamiyatini alohida ta‘kidlash mumkin. Shu bois mazkur metodik qo‘llanmada boshlang‘ich sinflarda o‘tkaziladigan ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlarni uch guruhga ajratib ko‘rsatishni joiz deb bildik:

1. O‘zbekiston Respublikasi shonli tarixida muhim o‘rin tutuvchi tarixiy sana va bayramlarga oid tadbirlar.

2. O‘zbek xalqi tarixi va adabiyotida alohida o‘rin tutuvchi buyuk allomalar tavallud sanalariga bag‘ishlangan tadbirlar.

3. Ona-tabiat, jamiyat hayoti bilan bog‘liq turli mavzulardagi tadbirlar.

Yuqorida ko‘rsatilgan bayram va tadbirlar ssenariylari Xorazm viloyati umumta‘lim maktablarida faoliyat ko‘rsatayotgan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ish tajribasidan, ommaviy nashrlardan, xususan, “Boshlang‘ich ta‘lim” jurnallaridan olib to‘plandi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SHONLI TARIXIDA MUHIM O‘RIN TUTUVCHI TARIXIY SANA VA BAYRAMLARGA OID TADBIRLAR SSENARIYLARI

2-SENTABR – BILIMLAR KUNI

“ASSALOM, MAKTAB”

Sahna O‘zbekiston Respublikasining mustaqillik bayrami munosabati bilan BAYRAM shiori asosida bayramona bezatilgan.

1-boshlovchi: Sening bilan shodman, goho gado men,

Sen yig‘lagan kuning bo‘lgum ado men.

Jonajon tilim, o‘tli sado men,

Sen mening jonimsan, jonimsan, Vatan!

2-boshlovchi: Sen bo‘stonsan, go‘zal bo‘ston cho‘lim ham,

Sensiz hayotim, sensiz yo‘lim ham

Sensiz qurib qolar, hatto ko‘lim ham,

Sen mening jonimsan, jonimsan, Vatan!

Chashma bo‘yidagi Jambuling go‘zal,

Gulga oshiq bo‘lgan bulbuling go‘zal.

Erka o‘g‘lonlaring – jon-diling go‘zal.

O‘tmishing buyugim, buyuk Vatanim!

1-boshlovchi: – Assalomu-alaykum, mehri daryo, qalbi dunyo hurmatli ustozlar, qadrli mehmonlar, jondan aziz farzandlarini maktab quchog‘iga otlantirgan aziz ota-onalar va bilim sari intilayotgan o‘quvchilar! Kechamizga xush kelibsiz.

2-boshlovchi: – Assalomu-alaykum, mustaqil yurtimning baxtiyor yoshlari, erkatoylari, hur diyorda yashayotgan aziz yurtdoshlar, zamondoshlar, kechamizga xush kelibsiz!

1-boshlovchi: - Bugun biz bu yerga “Bilimlar kuni” munosabati bilan yig‘ilgan ekanmiz, ushbu tadbirni ochib berish uchun so‘zni maktabimiz direktori__ ga beramiz. *(Tabrik so‘zlari)*

2-boshlovchi: - Hozirgi kunda ham mamlakatimizda bayram shukuhi davom etmoqda. Kuni kecha mustaqilligimizning 25 yilligi keng nishonlandi. Har yili mustaqillik bayrami va “Bilimlar kuni” arafasida o‘nlab yangi qurilgan maktablar

o‘quvchilar ixtiyoriga topshiriladi. Quvonchga to‘la jajji yuraklar yangi qurilgan maktablar haroratidan bahra oladilar. Shuningdek, har yili maktabga borgan 1-sinf o‘quvchilari muhtaram Prezidentimizning maxsus sovg‘asi bilan taqdirlanadi. Bu millat bolalariga g‘amxo‘rlikning yorqin namunasidir.

Yurtboshimizning jajji farzandlarga ko‘rsatayotgan e‘tibori, sizlarni hamisha “a‘lo” baholarga o‘qishga, barkamol avlod bo‘lib yetishishga va kelajakda shu aziz Vatanning munosib farzandlari qatorida o‘rin olishga da‘vat etadi.

1-boshlovchi: - O‘zbekistonimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng yosh avlod ta‘lim-tarbiyasiga jiddiy e‘tibor berilmoqda. Ozodlikning 25–tongi muborak bo‘lsin! Hurlikning 25-lahzasi muborak bo‘lsin! Yurtimizda tinchlik hamisha obodlikning ko‘rkam manzaralarini yarataversin! *(O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi ijro qilinadi va Davlatimiz bayrog‘i ko‘tariladi).*

2-boshlovchi: Shoir aytganidek,
Har onning qadrini o‘lchamoq uchun
Oltindan tarozi, olmosdan tosh oz.

Davramizda Ota-onalar qo‘mitasi raisi ishtirok etmoqda. Endi so‘z navbatini shu aziz mehmonga bersak. *(Tabrik so‘zlari)*

1-boshlovchi: Qo‘shiqdan boshlanar hayotning boshi
Qo‘shiqsiz yashamas zinhor hech inson.
Hatto qo‘shiq tinglaydi samo, quyosh ham.
Bulbul ham qo‘shiqni tinglaydi bir dam.
(Qizlar ijosida “O‘zbekiston gulzor” deb nomlangan raqs namoyish etiladi.)

1-boshlovchi: O‘xshashi yo‘q bu go‘zal bo‘ston.
Dostonlardan bitgan guliston.
O‘zbekiston deya atalur.
Uni sevib el tilga olur.

2-boshlovchi: Vodiylarni yayov kechganda.
Bir ajib his bor edi menda.
Chappar urib gullagan bog‘in.

O‘par edim Vatan tuprog‘in!
Endi ustozimiz, mehnat faxriysi ____ so‘zlariga quloq tutsak. (*Tabrik so‘zlari*)

1-boshlovchi: - Rahmat.

Istiqlol, seni deb jonim halakdir,
Tun-u kun tilimda duo, tilakdir.
Ozodlik quvonchi baxtga yo‘lakdir,
Dunyoga mashhurim, suyuk Vatanim.

(*O‘quvchilar tomonidan Vatan haqida she‘rlar aytiladi*).

1-boshlovchi: Bahor qaytar, kuz qaytar, qaytar turnalar.

Qaytar chog‘i ko‘z quvonib olam turlanar.

Bilib-bilmay sochimizga oq ham oralar.

Yoshligimiz eslaganda ko‘ngil tinchlanar.

Endi so‘z navbati ustozlarimizdan mehnat faxriysi ____ ga
(*Ustozning tabrik so‘zlari*).

2-boshlovchi: Mehr nuri yog‘ar doim yuzingizdan ustozlar.

Yursam deyman shu tabarruk izingizdan ustozlar.

(*O‘quvchilar tomonidan “Aziz ustozlar” qo‘shig‘ini ijro qilani*).

1-boshlovchi: Mustaqil diyormiz, millat Vatanmiz.

Yurt ishq, qalb mehri qallda namoyon.

Ona O‘zbekiston bir jon-u tanmiz.

Ulug‘ istiqloling qutlaydi jahon!

Oq tonglarda alif –lom deb, qalam ushatgan,

Yuragimda o‘n sakkiz ming olam gullatgan.

Vatan - deya, tilim bulbul qilib sayratgan.

Buxoriylar hatto sizga ta‘zim qilgan jim,

Ey ustoz- avvalim, janob muallim!

2-boshlovchi: - Maktab ostonasiga ilk bor qadam
qo‘yayotgan jajji ukajon, sen muborak kitobingni asra, ta‘lim
oladigan partangni, sinfingni asra! Qadr don maktabingni asra!
Ularni hech biriga gard yuqturma! Ustozlar o‘gitlariga quloq tut.
O‘qituvchilaring berayotgan bilimni aqling joyla!

Hozir maktabimiz direktori 1-sinf o'quvchilariga yurtboshimiz tomonidan berilgan Prezident sovg'asini tantanali ravishda tarqatadi.

1-boshlovchi: - Bitiruvchi sinf o'quvchisi va 1-sinf o'quvchilari birinchi qo'ng'iroqni chalib o'quvchilarni sinfga chorlaydi. (*Qo'ng'iroq chalinadi.*)

2-boshlovchi: - Hurmatli bayram qatnashchilari tadbirimizni yakunlash uchun so'z ____ ga. (*Tabrik va yakunlovchi so'z*)

1-OKTABR - O'QITUVCHI VA MURABBIYLAR KUNI

“SIZGA TA’ZIMDAMIZ, USTOZ”

(*Tadbir O'zbekiston Respublikasi madhiyasi kuylash bilan boshlanadi.*)

1-boshlovchi: Assalom azizlar,
Qalbi quyoshlar.
Mehringiz nuridan
Bahramand yoshlar.
Yurakdan siz uchun
Aytamiz kalom.
Ta'zim aylab deymiz,

Hamma: Salom, assalom

2-boshlovchi: Muallim ilk ustozim,
Ona kabi azizsiz.
Yo'limizga nur sochgan
Yerdagi quyoshsiz.
Bilim berib hayotga
Yo'llagan ham o'zingiz.
Bo'ldingiz ko'p mehribon,
Ta'zim qilamiz sizga.

Hamma: Uzoq yil bo'ling omon

1-boshlovchi: - Aziz ustoz, murabbiylar. Bugun sizning bayramingiz. Bu kun sizga muborak bo'lsin. Sizga sog'liq, uzoq, umr, sabr, baxt, omad tilaymiz.

Bolaga bir harfni o'rgatish oson yumish emas, shu bois barcha zamonlarda ham bu kasb egalari sharaflangan, el-yurt e'zozida bo'lgan.

1997-yilda boshlab Vatanimizda 1-oktabr- "O'qituvchilar va murabbiylar" kuni" umumxalq bayrami sifatida nishonlanib kelinmoqda. Bu esa o'qituvchilar va murabbiylarga hukumatimiz va Prezidentimizning buyuk ehtiromi, ular mehnatiga berilgan yuksak bahosidir.

Ushbu tadbirni ochib berish uchun so'z__ ga beriladi.
(Tabrik so'zlari)

2-boshlovchi: Ta'rifga so'z yetarmu,
Mehribon muallimim.
Fikri dono, aqli teran,
Jonajon muallimi!

1- boshlovchi: Ushlatib qo'linga qalam,
Ilkima berib kitob.
Yo'lchi yulduz bo'lganmu,
Mehribon muallimim!

2-boshlovchi: So'zingiz hikmat erur
Dilimizni yoritgay.
Yo'limizni yoritgay,
Jonajon muallimim!

(O'quvchilar ijrosida "Ustozlar" qo'shig'i ijro etiladi)

1-boshlovchi: Haq yo'lida kim sanga bir harf o'qitdi ranj ila,
Aylamak oson emas oning haqqin ming ganj ila.

2-boshlovchi: - To'g'ri aytasiz, bizga bilim bergan, o'qishni va yozishni o'rgatgan, hayot ilmini bergan ustozlar oldida biz bir umr qarzodormiz.

1- boshlovchi: -Xalq orasida "Ustoz otangday ulug'", "Bilmaganni so'rab o'rgangan olim, so'ramagan o'ziga zolim" degan maqollar bor. Biz bilmagan narsamizni ustozdan so'rasak, ular bizga o'zi bilgan hamma narsani o'rgatadi, saboq beradi. Endi sinfimiz o'quvchilari o'z ustozlariga atab yod olgan she'rlarini aytishadi.

1-o'quvchi: Ilk bor qadam qo'ygach maktabga
Ustoz sizdan mehr ko'rgandim.

Husnixat yozishni va o‘qishni ham
Ustoz sizdan o‘rgandim!

2-o‘quvchi: Ongim mutloq o‘zgardi shunday
Siz harf o‘rgatgan kundan.
Dil so‘zimni aytsam cho‘g dildan,
Men o‘qishni sizdan o‘rgandim.

3-o‘quvchi: O‘rgatdingiz mehr- muruvvat,
Ko‘rsat deya xalqqa xizmat.
Ko‘p qildingiz bunday nasihat,
Men yashashni sizdan o‘rgandim.

4-o‘quvchi: Paydo qilib qalbda odobni,
O‘qitdingiz turfa kitobni.
Qalbda ko‘ring endi shitobni,
Men har ishni sizdan o‘rgandim.

(Ustozlar haqida qo‘shiq ijro qilinadi.)

1- Boshlovchi: -Endi o‘quvchilar o‘z ustozlariga bag‘ishlab
she’r aytishadi.

Birinchi ustozga: Ilk bora partaga sekin o‘tkazib,
Jajji qo‘limga qalam tutqazib,
Unitmayman hech qachon,
Sizday ustozni!

Maktab direktoriga: Mehringiz jo‘shqin daryo,
Qalbingiz cheksiz daryo.
Siz mehribon ham yuvosh,
Maktabda hammaga bosh.

“Odobnoma” fani o‘qituvchisiga:

Tinmas edik berib savol,
Nima to‘g‘ri, nima halol?
Qalbimizga joylab odob,
Yoritdingiz go‘yo oftob.
Ey mehribon ustoz,
Sizga ta’zim, sizga e’zoz!

“Rus tili” fani o‘qituvchisiga:

O‘rgatdingiz rus tilini
Chiqdi mana savodim.

Спасибо вам дорогая,
Мой учительница родная.

1-boshlovchi: - Aziz mehmonlar, keling endi gullarimizni ustozlarga taqdim etaylik. (*Ustozlarga gullar beriladi*).

2-boshlovchi: - Endi o'quvchi yod daftarga yuzlanaylik, xo'sh ustoz qanday inson?

1-o'quvchi: Ustoz ulug'lar, ulug'i unga hamma narsa ayon

2-o'quvchi: Ustoz bilimni yurakdan beradi.

3-o'quvchi: Ustozning ham ustozlari bor.

4-o'quvchi: O'qituvchilik kasbi mas'uliyatli, mashaqqatli, ammo o'ta sharaflidir.

5-o'quvchi: O'qituvchi- bilimlar dunyosiga yetaklovchi zot.

6-o'quvchi: Aqlga bilim, qalbgga ma'naviyat ulashuvchi, ziyo taratuvchi inson- bu birinchi ustoz.

(*O'quvchilar tomonidan xorazmcha "Dig'a-dig'ajon" qo'shig'iga raqsga tushiladi*)

1- boshlovchi: - Tarbiyachi ustoz bo'lish uchun, boshqalarni aql-idrokini o'stirish, ma'rifat ziyosidan bahramand qilish, haqiqiy inson etib tarbiyalash uchun, tarbiyachining o'zi shu talablarga javob berishi kerak!

2-boshlovchi: - Ana shunday buyuk nomga sazovor bo'lgan _____ ni faxr bilan tilga olamiz.

(*O'quvchilar tomonidan qo'shiq ijro etiladi.*)

1-boshlovchi: – Aziz ustozlar, endi siz uchun tayyorlangan xandalarni tomosha qiling. Kuling, umringiz uzoq bo'ladi.

(*O'quvchi va o'qituvchilar hayotiga oid xandalar namoyish qilinadi*)

1-boshlovchi: - Aziz ustozlar! Bugungi bayramga atab tayyorlangan tadbirimiz nihoyasiga yetdi.

2-boshlovchi: - Biroq dilimizda sizga bo'lgan mehr, sadoqat, hurmat hech qachon tugamaydi.

(*"Xorazm lazgisi" raqsi*)

“USTOZGA E’ZUZ”

(Sahna bayramona bezatiladi. Monitorda “Birinchil qo‘ng‘roq” tadbirlan lavhalar va dars jarayonlari ustozlar haqidagi ashula asosida namoyish qilib turiladi.)

1-boshlovchi: Hayot ummonida bamisli mayoq,
Yiroqlarga nazar tashlar ustozlar.
Sodiq shogirdlarga berarkan saboq,
Doimo haq yo‘lga boshlar ustozlar.

2-boshlovchi: Eng og‘ir damlarda vazminlik bilan,
Sabr ila matonat darsin o‘tarlar.
Ezgulik singdirib dillarga har dam,
Kelajakka totli meva tutarlar.

1-boshlovchi: Assalom mehmonlar, mehri ziyolar,
Yuzlari quyosh-u qalbi daryolar
Sizga ham, tengdoshlar, dildan ehtirom,
Qo‘llar ko‘ksimizda, deymiz assalom!

2-boshlovchi: Assalom-u alaykum, ustoz muallim,
Ta‘limning me‘mori, zarning zargari,
Muqaddas kasbingiz asrga muhr
Hayotning eng asl noyob gavhari...

1-boshlovchi: - Assalomu alaykum, fidoyi, jonkuyar, sabrmatonatga boy, qalbi ezgulikka to‘la, nur-ziyo taratuvchi ustoz va murabbiylar hamda tadbirimiz mehmonlari!

2-boshlovchi: - Bugun biz o‘z qalb qo‘ri, ko‘z nurini, mehrmuhabbatini Vatan kelajagi uchun baxshida etgan, buyuk O‘zbekistonga har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalashdek mas‘uliyatli va sharaflil vazifani zimmalariga olib, bu oliyjanob ishni sidqidildan bajarishga bel bog‘lagan ustozlarimizni, muallim-u murabbiylarimizni tabriklash, e‘zozlash maqsadida to‘plandik.

1-boshlovchi: -Ustoz, o‘qituvchi, muallim, murabbiy. Bu so‘zlar bir-birini aynan takrorlanmasa-da, ma‘no-mohiyati yaqin. Zamirida olam-olam ma‘no mujassam. Eng avvalo, yozish va qanday o‘qishni o‘rgatgan inson – ustozdir.

2-boshlovchi: -O‘qish, yozishni bilgach, kitobga ixlos uyg‘otgan ham shu muallim! Yaxshi o‘qisak, xursand bo‘lgan, a‘lodan past bilsak, darhol yeng shimirgan, yuragimizga qo‘l solib, yana ilm sari yo‘naltirgan-da shu birinchi o‘qituvchimiz!

1-boshlovchi: - Darhaqiqat, barcha orzu-umidlari ro‘yobini, baxtini farzandlari kamolida ko‘radigan xalqimiz hamisha ustoz zotini ulug‘lab, ularga cheksiz hurmat-ehtiromini namoyon etib kelgan va shunday bo‘lib qoladi.

Azaldan ustozni ulug‘lar xalqim,
Ularga ezgulik tilamoq haqqim.
Bunchalar buyuksiz, bunchalar zukko,
Umringiz mo‘jiza -yetmaydi aqlim.

2-boshlovchi: - Haqiqatan ham, o‘quvchilarni o‘z farzandidek qabul qilib, mehr ko‘rsatib, ilm berishdek ulkan, zahmatli, oliyjanob vazifani ado etishda o‘qituvchilarning hissasi benihoya kattadir. O‘z umrini o‘zgalar yo‘lini oydin qilishga bag‘ishlagan ustoz va murabbiylarni mash‘alaga qiyoslash mumkin.

1-boshlovchi: -Aziz ustozlar, navbatni Siz tarbiyalagan, ilm-u hunar o‘rgatayotgan o‘quvchilarga beramiz.

1-o‘quvchi: Sizning ta‘limingiz olmagan kim bor?

Siz-ku yuraklarda ilk ziyo yoqqan.
Olimmi, shoirmi va yo san’atkor,
Ilk bor sizga tomon ustoz deb boqqan.

2- o‘quvchi: Bitta harf dardida riyoziyat chekib,

Oqibat ko‘kka ham chiqolgan inson.

Ne ajab sizlarni baxtiyor etib,

O‘rnidan dast turib, bosh egga shu on.

3- o‘quvchi: Buyuk Alisherdek lutf etgan misol,

Savod o‘rgatdingiz qancha ranj bilan.

To‘lab bo‘larmikan bu qarzni alhol

Uzib bo‘larmikan yuzta ganj bilan?!

(O‘quvchilar o‘zlari tayyorlagan raqsni namoyish etadi).

1-boshlovchi: - Ustoz deganda, har qaysi inson ko'nglida chuqur hurmat-ehtirom va cheksiz minnatdorchilik tuyg'ulari paydo bo'ladi.

Siz, murabbiy inson uchun,
Har bir ilm-u irfon uchun.
Rahnamosiz bizlar uchun
Qalbi daryo, muallimlar.

2-boshlovchi: - Xalqimiz naqlida: "Bir yildan keyingi hayot haqida qayg'urmoqchi bo'lsang, bug'doy ek. O'n yildan keyingi hayot haqida qayg'ursang, daraxt ek. Agar yuz yildan keyingi hayot haqida qayg'urmoqchi bo'lsang – ta'lim-tarbiya ber", - deyilgan.

Tinmas edik berib savol,
Nima to'g'ri nima halol?
Qalbimizga joylab odob,
Yoritdingiz go'yo oftob.
Ey, mehribon, aziz ustoz,
Sizga ta'zim, sizga e'zoz.

1-boshlovchi: - Hurmatli ustozlar, oldingizda turgan sharlar ichiga savollar yashiringan, marhamat, ulardan xohlaganingizni tanlab savollarga javob bersangiz (sharlar ichiga quyidagi savollar yashiriladi).

1. Birinchi o'qituvchingiz kim edi?
2. Nima uchun ushbu kasbni tanlagansiz?
3. Yoshligingizda qanday kasb egasi bo'lishni xohlardingiz?
4. O'quvchilik davringizdagi eng esda qolarli qiziqarli voqeani aytib bering.
5. Agar sehrli shamchiroq topib olsangiz-u, undan faqat birgina tilak so'rash kerak bo'lsa nimani so'rardingiz?

(*"Aziz ustozlar" qo'shig'i ijro qilinadi.*)

2-boshlovchi: - Aziz, ustozlar, sizlarni yana bir bor qutlug' ayyomingiz bilan chin qalbdan tabriklaymiz.

1-boshlovchi: - Sizlarga sihat-salomatlik, yosh avlodni tarbiyalashdek mashaqqatli va sharaflı ishingizga muvaffaqiyat tilaymiz.

2-boshlovchi: - Shogirdlaringiz va farzandlaringiz kamolini ko‘rish barchangizga nasib etsin. Shu bilan bugungi bayram tadbirimiz o‘z nihoyasiga yetdi. E’tiboringiz uchun rahmat!

(O‘qituvchi va o‘quvchilar ijrosida raqs).

21-OKTABR- O‘ZBEK TILIGA DAVLAT TILI MAQOMI BERILGAN KUN

“ONA TILIM – QALBIM QUYOSHI”

1 -boshlovchi: Ona tilim, buyuklikda eng baland tog‘san,
Ona tilim, suyaklikda Erami bog‘san.

2 – boshlovchi: Ona tilim, jon tilim,
Yuragimning qo‘rida
Sayrab turgan bulbulim.

1 – boshlovchi: - Assalomu alaykum, aziz ustozlar, hurmatli o‘quvchilar.

2- boshlovchi: - Assalomu alaykum, davramiz ishtirokchilari va mehmonlar.

1-boshlovchi: - Bugun mamlakatimizda katta tantana, ya’ni 21-oktabr – O‘zbek tiliga O‘zbekiston Respublikasining Davlat tili maqomi berilgan kun.

2-boshlovchi: - Shu munosabat bilan o‘quvchilar “Ona tilim – qalbim quyoshi” deb nomlangan tadbir tayyorlab kelganlar. Marhamat, tinglab tomosha qiling.

1-boshlovchi: - Jahondagi ko‘p mamlakatlar o‘z davlat tiliga ega. O‘zbekiston Respublikasining ham o‘z davlat tili bor. Bu haqda respublikamizning asosiy Qonuni – O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida shunday yozilgan: “O‘zbekiston Respublikasining Davlat tili o‘zbek tilidir”.

2-boshlovchi: - Davlat tili deganda, shu davlat hududida asosiy aloqa vositasi bo‘lgan til tushuniladi. Barcha davlat hujjatlari davlat tilida yoziladi. Majlislar, shu tilda olib boriladi.

1-boshlovchi: - Har bir davlat o‘z tilining sofligini, uning boyib borishini ta’minlaydi va iste’mol doirasini kengaytirishga harakat qiladi, davlat tilini o‘rganish va o‘qitish uchun qulay shart-sharoitlar yaratib beradi.

2-boshlovchi: - O‘zbekiston Respublikasining Davlat tili haqidagi qonuni 1989-yil 21-oktabrda qabul qilingan. Shuning uchun xalqimiz har yili ushbu kunni til bayrami sifatida nishonlaydi.

1-boshlovchi: - Bu kunda biz ona tilimiz haqida she’r va qo‘shiqlar aytamiz. Tilimizning boy va uzoq tarixini eslab, uni rivojlantirishga hissa qo‘shgan yozuvchilar, shoirlar, olimlar xotirasini yodga olamiz.

2-boshlovchi: - Sinfdoashlarimiz Xurshid Davronning “Ona tilim” she’rini o‘qib berishadi.

1-o‘quvchi: Kelib ketdi necha dunyolar,
Kuldi hayot, yig‘ladi o‘lim.
Sen deb qurbon bo‘ldi bobolar,
Ular ketdi, sen qolding tilim.

2- o‘quvchi: Belanchaging uzra Koshg‘ariy
Kuylab o‘tdi qadim navoni
Va navqiron yaproqlaringga
Dil qonini berdi Navoiy.

3-o‘quvchi: Samarqanddan Bobur ketarkan,
Dilda bo‘g‘ib hasrat sasini,
Olib ketdi ona yurtidan,
Turkiy tilim birgina seni.

4-o‘quvchi: Mashrabmas, sen osilding dorga,
Nodiramas, sensan so‘yilgan.
Hoziqningmas, sening, ey tilim,
Boshing ayr-u, ko‘zing o‘yilgan.

5-o‘quvchi: Ammo dushman o‘ldirgan botir
Tirilgandek yana qasosga,
Mangu borsan va mangu qodir
To‘ldirmoqqa yerni ovozga.

6-o‘quvchi: Vatan uchun baxsh etib jonni,
Kechib olov, kirib daryoga,
Farzandlaring to‘kkan har qonni
Shimirding sen o‘xshab giyohga.

7-o‘quvchi: Ona tilim, omon bo‘l mangu,
Sen borsan-ku men ham o‘lmayman,

Tildan qolsam, seni Oybekday,
Men ko‘zlarim bilan so‘ylayman.

2-boshlovchi: - Marhamat, navbatni yana ona tilimizni madh etuvchi she‘rlarga beramiz.

“Ona tilim o‘lmaydi” (*Erkin Vohidov she‘ri*).

“Ona tilim” (*Mirtemir she‘ri*).

“Til” (*Avaz O‘tar she‘ri*).

1-boshlovchi: - Davlat tili haqidagi qonun bizga nima uchun kerak?- “Bu qonun o‘zligimizni saqlab qolish, tilimizni yo‘qotib qo‘ymaslik uchun, o‘zbek degan xalqning yo‘q bo‘lib ketmasligi uchun kerak”, - degan O‘zbekiston Qahramoni Erkin Vohidov.

1-o‘quvchi: - Yer yuzida qancha millat, xalq, elat bo‘lsa, shuncha til bor. Tilsiz xalq yo‘q, xalqsiz til ham bo‘lmaydi. Bular egizak tushunchalardir. Ularni bir- biridan ayirib bo‘lmas. Agar ayirib qo‘yilsa, ikkisi ham o‘zligini yo‘qotadi. Xalq boshqa bir xalqqa qo‘shilib ketadi.

2-o‘quvchi: - Har bir millat o‘z hayoti davomida aloqa quroli sifatida, asosan, bitta tildan foydalanadi.

3-o‘quvchi: - Farzandni tarbiyalab voyaga yetkazishda onaning o‘rni beqiyos. Bola ilk tovushlarni, so‘zlarni onasidan eshitib, o‘rgangani bois, ona tili deyiladi.

2-boshlovchi: - Milliy til millatning birinchi belgisidir. Shuning uchun har bir millat istiqbol uchun kurashsa, dastlab milliy tilning sofliqi, uning qadr-qimmatini tiklash uchun kurashadi. Til o‘tgan avlodlar tajribasi, bilimlari natijasini kelgusi avlodlarga yetkazuvchi ko‘prik hamdir. Til shaxsning o‘zini o‘ziga tanitadi, milliy iftixor tuyg‘usini kamol toptiradi.

1-boshlovchi: - Bunga quyidagi rivoyat ham yaqqol misol bo‘ladi.

(*“Til qudrati” nomli rivoyat sahnalashtirib ijro etiladi*).

Qadim-qadimlarda oqil va odil bir odamning suluv qizi bo‘lgan ekan. Shu qizga ikkita yigitning ishqiy tushibdi. Qiz ulardan qaysi biriga ko‘ngil berishni bilmay qolibdi. Yigitlar qizning visoliga yetishish ilinjida yelib yuguraveribdi. Nihoyat, qiz ularga shunday debdi: “Men yurt farzandi bo‘la oladigan

o'g'ilga ona bo'lishni istayman. Uni qanday tarbiyalashga qodirliklaringizni bilishim kerak. Ana shunga qarab sizlarga qarorimni aytaman".

-Bu ish faqat mening qo'limdan keladi. Men unga ilm o'rgataman. Riyoziyotdan, falakiyotdan saboq beraman. Siyosat bilan shug'ullanadi. Ajnabiy tillarni egallaydi. Olamga dong taratadi, - debdi birinchi yigit.

Navbat ikkinchisiga kelganda, u aytibdi: "Avlodlardan avlodlarga meros qoladigan asosiy boylik tildir. Xalqning umr o'lchovini uning tili belgilaydi. Dunyodagi bor go'zallik va sehrli ona allasini eshitmoqlik baxti til bag'rida, maqsadimni anglagandirsan? Men o'g'limni tiliga xiyonat qilmaslikka, qo'shiq, ertak, dostonlar aytib, mana shu ona tilimiz uchun jonini ham ayamasklikka o'rgataman".

Bu gaplardan olim yigit qahqaha urib kulib, raqibini aqli pastlikda ayblabdi. "Janjallashmanglar, - debdi qiz, - yurtda ulug' donishmand bor, uning huzuriga boramiz. Hammasi o'sha joyda hal qilinadi. Uning hukmi mening uchun qonun bo'ladi".

Donishmand yoniga borishibdi. U nizoga sabab bo'lgan barcha gaplarni tinglabdi-yu, aqli pastlikda ayblangan yigitga debdi: "Qiz seni sevadimi-yo'qmi bilmayman, lekin otalik sharafiga sen loyiqsan...".

2-boshlovchi: - Xalqimiz, ona tilimizga befarq bo'lmagan o'zbek farzandi borki, bugun iftixor va ehtirom bilan buyuk bobokalonimiz Mir Alisher Navoiyni esga oladi. O'zbek tili va adabiyotining ravnaqi uchun hech kim Alisher Navoiychalik hizmat qilmagan.

Bobomiz go'zal tilimiz xazinasidagi betakror dur-u gavharlarning latofatini kashf etib, asarlarida shunday mohirlik bilan qo'lladilarki, uning dovrug'i butun sharqqa yoyildi. She'riyat sultoni aytganlaridek:

Olibmen taxti farmonimga oson,
Cherik tortmay Xitodin to Xuroson.

O'quvchi: So'zdirki, nishon berur o'likka jondin.

So'zdirki, berur jonga xabar jonondin.

Insonni so'z ayladi judo hayvondin.

Bilginki, guhari sharifroq yo‘q ondin.

1-boshlovchi: - Taniqli yozuvchilardan biri o‘z o‘rnida qo‘llanilmagan so‘zni yam-yashil daraxtga qoqilgan mixga o‘xshatgan edi. Darhaqiqat, noo‘rin ishlatilgan so‘z xoh og‘zaki muloqot bo‘lsin, xoh matbuotda bo‘lsin, erish tuyulishidan tashqari, tilga e‘tiborsizlik hisoblanadi.

2-boshlovchi: - “So‘zning otasi aql, onasi til”, - deyishadi keksalar. Muomala madaniyatida so‘z aqldan kuch, tildan ixtiyor oladi. Odamning odobi, dastavval, uning tilida, keyin tili orqali bilimida ko‘rinadi.

1-boshlovchi: - Biz namoyish etmoqchi bo‘lgan sahna ko‘rinishi ham tilning nimalarga qodirligini yana bir bor isbotlaydi.

(Quyidagi rivoyat sahnalashtiriladi).

Podshoh bir kuni vazirlariga: - Menga eng lazzatli taom pishirib keltiringlar, - dedi. Vazirlar maslahatlashib, til go‘sh tidan taom pishirib keldilar. Taom podshohga ma‘qul bo‘ldi.

U: - Endi esa menga eng achhiq narsadan tayyorlangan ovqat olib kelinglar, - deb farmon berdi. Bu gal ham unga til go‘sh tidan ovqat pishirib keldilar. Podshohga topshiriqning ijrosi ma‘qul bo‘ldi va vazirlarini mukofotladi.

2 – boshlovchi: - Navbat so‘zlashish madaniyati haqidagi maqol va she‘rlarga.

(O‘quvchilar birin – ketin maqol va she‘rlar aytadilar).

1 – boshlovchi: - Alisher Navoiy ona tili xazinalarini ochib ko‘rgach, uni shunday ta‘riflagan edi: “Tilimiz 18000 olamdan bayroq bo‘lgan shunday bir xazinaki, har bir dur –u gavhari, ya‘ni so‘zlar osmon yoritgichlaridan ham porloq, shunday bir gul-u chaman lolalaridan go‘zalroqdir”. Aziz bolalar, siz mana shu buyuk xazinaning sohibisizlar. Uni asrang va qadrlang.

2 – boshlovchi: - O‘zaro so‘zlashuvda muloqot odobiga rioya qilish, vaziyatga qarab fikr bildirish, yoshni e‘tiborga olib muomala qilish, go‘zal va bama‘ni so‘zlash – bu insoniylik belgilaridan ekan, unga amal qilish burchimizdir.

Boshlovchilar birgalikda: - Xayr. Salomat bo‘ling!

8-DEKABR – O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI KUNI

“QOMUSIMIZ – BAXTIMIZ”

Gullar bilan bayramona bezatilgan sahna markaziga Konstitutsiya kitobining kattalashtirilgan nusxasi osiladi. Huquqni himoya qilish idoralari vakillari, mehmonlar taklif etiladi. O‘zbekiston Respublikasi madhiyasi yangraydi.

1- boshlovchi: Vatan- ona so‘zi naqadar laziz,

Sensan har narsadan mo‘tabar aziz.

Hurimatingni saqlar har bir o‘gil-qiz,

Muqaddas, mo‘tabar ulug‘, vatanim,

O‘lsam ayrilmasman quchoqlaringdan.

2-boshlovchi: Vatanlar shodasi ichra durdona,

O‘zingsan dunyoda tanho yagona.

Qoshingda bir umr bo‘lib parvona,

Vatanim, koringga yarasam deyman.

2-boshlovchi: - Hurmatli ustozlar, aziz bilim ahli va qadrli mehmonlar. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kunga bag‘ishlab o‘tkazilayotgan bayram tadbiriga xush kelibsizlar.

1-boshlovchi: - Hozir davramizga huquqshunos mehmonlarimizni taklif etamiz. *(Huquqshunoslarga so‘z beriladi)*

2-boshlovchi: Men nechun sevaman O‘zbekistonni

Tuproq‘in kozimga aylab to‘tiyo.

Nechun vatan deya yer-u osmonni

Muqaddas atayman atayman tanho.

1-o‘quvchi: -Biz O‘zbekiston fuqarosimiz, buni e’tirof etarkanmiz, qalbimiz faxr va quvonchga to‘ladi. Chunki O‘zbekiston dunyoda qiyosi yo‘q go‘zal vqa betakror mamlakatdir.

2-o‘quvchi: - Bunday vatanda tug‘ilish, uning tabarruk ne‘matlaridan bahramand bo‘lib voyaga yetish, jahonni lol etgan buyuk insonlarga munosib vorislik hammaga ham nasib etavermaydigan ulkan baxt, tengsiz saodatdir.

3- o‘quvchi: - O‘zbekiston fuqaroligining huquqiy asoslari mamlakatimiz Konstitutsiyasi, fuqarolik kodeksi va boshqa qonun hujjatlarida belgilab berilgan.

4- o‘quvchi: - “Fuqaro” so‘zi grajdanik ma’nosini anglatadi. “Grajdan” lotincha so‘z bo‘lib, huquqiy jihatdan biron-bir davlatda mansublikni bildiradi.

5- o‘quvchi: - Qadimda “fuqaro” so‘zi o‘rnida “tabaqa”, “raiyat” kabi so‘zlar ko‘proq kishining inson sifatidagi huquqi va burchini davlat va jamiyat oldidagi mas’uliyatini his etishi ma’nosida ham ishlatilgan.

6- o‘quvchi: - O‘zbekiston fuqarosi bo‘lish bizga faqat g‘urur, iftixor baxsh etibgina qolmay, zimmamizga yuksak mas’uliyat yuklaydi. Chunki mamlakatimizning bugungi taraqqiyoti, kelajak taqdiri, uning dunyodagi o‘rni va nufuzini mustahkamlab borish biz – O‘zbekiston fuqarolarining muqaddas burchimizdir.

7-o‘quvchi: - Fuqarolik hissi vatanparvarlik fazilatini shakllantirishda g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zining fuqarolik burchini chuqur his qilgan odam mamlakat qonunlarini hurmat qilib, ularga qat’iy amal qiladi, qonunlarning har bandida o‘z xalqining irodasini his etadi.

8- o‘quvchi: - Fuqarolik hissi bilan yashash hamisha ongli va faol harakat qilishni, shaxsiy manfaatlarini vatan va xalq manfaatlari bilan uyg‘unlashtirishni talab etadi. Fuqarolik hissini tuygan odam mahallasi, shahar-u qishlog‘i, mamlakati taqdirini o‘z taqdiri bilan bog‘laydi. Birinchi Prezidentimiz ta’biricha, doimo “Elim deb, yurtim deb yonib yashaydi”.

9- o‘quvchi: - Ongli fuqaro jamiyat hayotidagi voqealarda chuqur o‘ylab, fikrlab ishtirok etadigan, nafaqat o‘z manfaati yoki o‘zi mansub bo‘lgan guruh yoki toifa manfaatini, balki xalq va vatan manfaatini ko‘zlaydigan fuqarodir.

10- o‘quvchi: - Irodani tarbiyalash his-tuyg‘u va orzu-istaklarni aniq bir maqsadga yo‘naltirish, o‘tkinchi istak va mayllarni yengib, ruh va vujudni chiniqtirib borishdan iborat. Buning uchun doimo mashq qilish, ko‘p o‘qish, qiyinchiliklardan cho‘chimaslik, ularni sabr-toqat bilan yengib borish kerak.

11-o‘quvchi: - Shoirimiz G‘afur G‘ulom aytganidek,
“Alo mamlakatning a’lo farzandi,
Bilib qo‘yki seni vatan kutadi”.

12- o‘quvchi: - Xalq deb u yoki bu davlatdagi barcha fuqarolarga aytiladi. Xalq – davlatning yetakchi kuchi jamiyatda yashaydigan insonlardir.

13- o‘quvchi: - Xalq davlat hokimyatining birdan-bir manbaidir. O‘zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko‘zlab va O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan idoralar tomonidagina amalga oshiriladi. (O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 7- modda.)

14- o‘quvchi: O‘xshashi yo‘q bu go‘zal bo‘ston,
Dostonlarda bitgan guliston.
“O‘zbekiston”, deya atalur.
Uni sevib el tilga olur.

15-o‘quvchi: – O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ko‘ra Respublika Prezidenti lavozimiga 35 yoshdan kichik bo‘lmagan, kamida o‘n yil O‘zbekiston hududida muqim yashagan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi saylanishi mumkin.

16- o‘quvchi:-- O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti davlat boshlig‘idir va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishni hamda hamkorligini ta‘minlaydi. (89-modda)

17- o‘quvchi: Xalqparvar Yurtboshim millatim faxri
Ertasin o‘ylaydi o‘z bolalarin.
Ilm-u marifatda bir quyosh bolib
Nurga chulgamoqda gul- lolalarin.

18 – o‘quvchi:- Biz hurmatli va muhtaram Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov porloq xotirasi oldida hamisha bosh egamiz. U kishining biz yoshlarga aytgan o‘gitlarini unutmaymiz, bizga bo‘lgan ishonchlarini oqlaymiz. Barchamiz Vatanimiz, Xalqimiz oldidagi farzandlik burch va vazifalarimizni a’lo baholarga o‘qishimiz, turli sohalardagi yutuqlarimiz bilan albatta ado etajakmiz.

Hamma: Ona-O‘zbekiston- kelajagimiz,

A'lo o'qishdir -bizning burchimiz.

1-boshlovchi: Istiqbol bu – istiqbol
Nurli hayot degani.

Qo'rg'on butun, el-yurt tinch

Vatan obod degani.

2-boshlovchi: Ulg'ayaman, shu niyat

Bo'lsin mening keragim.

Istiqbolga munosib

Farzand bo'lmoq tilagim.

(O'quvchilar Qambar otaning "Baxt qomusi", Dilshod Rajabning "Bizning bosh qomus kitob" she'rlarini navbat bilan aytadilar).

1-boshlovchi: - Bu yil "Xalq bilan muloqot, inson manfaatlari" yili ekan, yurtimizda olib borilayotgan bunyodkorlik ishlari, avvalo, xalq uchun, inson manfaatlari uchundir.

1-o'quvchi: - Har bir bola o'z ismiga, millatiga ega bo'lish hamda o'z ota-onasini bilish va ularning vasiyligi huquqlariga ega. ("Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyadan, 7-modda).

2-o'quvchi: Maktabimiz bog'iga

O'tkazdik biz yosh nihol.

Parvarishlab qaradik

Nihol ko'rmasin zavol.

3- o'quvchi: Biz ham nihol singari

O'smoqdamiz erkin, shod.

Faxrlanar biz bilan

Ona-Vatan umrbod.

4- o'quvchi: Ota va onamizning

Bizlar ko'rar ko'zimiz

Ona O'zbekistonning

Kelajagi – o'zimiz.

5- o'quvchi: - Bizning huquqlarimiz O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida to'liq ko'rsatilgan. Har bir inson o'zi va bolalarining xavfsizligini ta'minlash huquqiga ega. U xavfsiz muhitda yashashga haqli.

6-o‘quvchi: – Hammamiz yaxshi hayot kechirish huquqiga egamiz. Biz yaxshi yashashimiz, dam olishimiz uchun kiyim-kechak, daftar, qalam va barcha kerakli narsalarga ega bolishga haqlimiz.

7-o‘quvchi:-- Yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og‘ir jinoyatdir. (24-modda).

8- o‘quvchi: - Biz kasalliklardan davolanish huquqiga egamiz. Har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga egadir. (40- modda)

9- o‘quvchi: - Har birimiz dam olish huquqiga egamiz. Aks holda, biz o‘z burchlarimizni bajarishga kuch topa olmay qolamiz.

10- o‘quvchi:-- Bolalar ta’lim olish (yani maktabda o‘qish) huquqiga egadir. Har kim ta’lim olish huquqiga ega. (41- modda)

11- o‘quvchi: - Huquqlar o‘z navbatida burchlarimizni eslatib turadi, a’lo baholarga o‘qish – har bir o‘quvchining asosiy burchidir.

12-o‘quvchi: - Shu kabi atrof muhitni, ona tabiatimizni, qushlar va hayvonlarni asrab-avaylash ham bizning burchimizdir. Fuqarolar atrof – muhitga ehtiyotkorona munosabatda bolishga majburdirlar. (50- modda)

13-o‘quvchi:- Jamiyat uchun zararli va qonun bilan ta’qiqlangan xatti-harakatlar huquq buzarlilik deyiladi.

SAHNA KO‘RINISHI

1. Aziza magnitofonning ovozini baland ko‘tarib raqsga tushadi va qo‘shnilarning tinchini buzadi. Qo‘shnilar bir-ikki marta ogohlantirishadi.

2. Sardor o‘z ortog‘i Saidni bir-ikki marotaba baland ovozda chaqiradi. Said javob bermagach, derazasiga tosh otib sindirib qo‘yadi.

3. Elbek sinf partasiga, maktab devoriga rasmlar chizib ketadi.

2-boshlovchi: - Ha, aziz o‘quvchilar, biz o‘z huquqlarimizni bilish bilan birga, boshqalarning huquqini ham hurmat qilishimiz

kerak, aks holda, yuqoridagi kabi huquqbuzarlik va ko'ngilsiz voqealarga duch kelishimiz mumkin.

1- boshlovchi: - Davlatimiz tomonidan o'rnatilgan barcha uchun majburiy qoidalar, qonunlar mavjud ekanligini va bu qonunlarning asosiy vazifasi fuqarolarni himoyalashdan iboratligini barchamiz yaxshi bilamiz.

2-boshlovchi: - Zero, biz o'z vatanimizni chin dildan sevamiz va u bilan faxrlanamiz. Vatanimizga bo'lgan muhabbatimiz esa vatanparvarlik belgisidir. Biz-O'zbekistonning har bir fuqarosi, ona-yurtimizning ravnaqi va nurli kelajagi uchun mas'ulmiz.

1- boshlovchi: - Birinchi Prezidentimiz ta'kidlaganidek, buyuk bobolarimizning ulug' niyatlari va ishlarini davom ettirishga burchlimiz.

2-boshlovchi: - Shuning bilan bugungi tadbirimiz o'z nihoyasiga yetdi. Xayr, salomat bo'ling!

14-YANVAR – VATAN HIMOYACHILARI KUNI

“VATAN HIMOYASI-MUQADDAS BURCH”

Sinf bayramona bezatilgan, o'quvchilar musiqa sadolari ostida O'zbekiston Respublikasi bayrog'ini olib kiradilar. O'zbekiston Respublikasining madhiyasi ijro etiladi.

1-boshlovchi: - Assalom, ustozlar, aziz mehmonlar.

Davraga yig'ilgan qalbi quyoshlar.

Sizga dildan ta'zim, dildan ehtirom,

Bayramga jam bo'lgan do'stlar, assalom.

2-boshlovchi: - Assalomu alaykum, hurmatli ustozlar, qadrli mehmonlar, aziz o'quvchilar.

1-boshlovchi: - Bugun Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan Qurolli kuchlarimiz tashkil etilganining 25 yilligiga bag'ishlangan tadbirimizga...

Birgalikda: -- Xush kelibsiz.

1-boshlovchi: -1991-yil 1-sentabr. Asriy orzu - umidlar ushaldi. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi qo'lga kiritildi.

Mustaqil davlat shaklida o‘z tili, bayrog‘i, gerbi va madhiyasiga ega bo‘ldi.

2-boshlovchi: -- Xalqimiz o‘zining ulug‘ maqsadi – ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurish yo‘lida ulkan ishlarga bel bog‘ladi.

1-o‘quvchi: Shukrkim, sendayin bir jahonim bor,
Onamday mehribon jonajonim bor.
Seni kuylayman va sen-chun yashayman,
Toki qallda qonim, tanda jonim bor.
Ey mening shuurim, so‘nmas iymonim,
Sadqadir senga jon, O‘zbekistonim.

2-o‘quvchi: -Vatan muqaddas dargoh. Uning har bir qarichi biz uchun azizdir. Shu yurtida tug‘ilib, o‘sib, shu yurtida kamol topgan zot borki, umr bo‘yi unga nisbatan buyuk muhabbat bilan yashaydi.

3-o‘quvchi: - “Tinch elning bog‘i gullar”, – deydi donishmandlarimiz. Shukrona aytamizki, Vatanimiz tinch, yurtimiz obod. Osoyishtalik tufayli kundan kun rivojlanib borayotgan davlatimiz jahonga yuz tutmoqda.

4-o‘quvchi: -Ha, to‘g‘ri aytasiz, tinchlik - ulug‘ ne‘mat. Tinchlik bor joyda bolalar kulgusi jaranglab turadi. Hayot gullab - yashnaydi. Bizning mana shunday osoyishtaligimizni qo‘riqlayotgan harbiy askarlarimizga bugun tasannolar aytamiz. Ular tufayli yurtimizda osuda tonglar otmoqda.

1-boshlovchi:- Har bir davlat o‘z xavfsizligini ta‘minlash, yurt tinchligini saqlash maqsadida o‘z armiyasini shakllantiradi. O‘zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlari 1992- yil 14-yanvarda tashkil topgan.

1-o‘quvchi:- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 125- moddasida “O‘zbekiston Respubliasi Qurolli Kuchlari O‘zbekiston Respublikasining davlat suverenitetini va hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish uchun tuziladi. Qurolli Kuchlarning tuzilishi va ularni tashkil etish qonun bilan belgilanadi”, - deyilgan.

2-o‘quvchi: - O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 126- moddasida esa “O‘zbekiston Respublikasi o‘z xavfsizligini

ta'minlash uchun yetarli darajada qurolli kuchlarga ega" ekani ta'kidlangan.

Askar kiyimidagi o'quvchi:

Dunyoda shod-baxtiyorman-
O'zbekistonim bor mening.
Bog'lari Eram misol,
Jannatmakonim bor mening.
Vatan mehri bilan yenggan,
Telba Doro lashkarini
Cho'pon yigit- Shiroqdayin,
Zo'r pahlavonim bor mening.
Ona yurtim xalos etgan,
Chingiz, mo'g'ul zulmidan.
Na'rasi ko'kni titratgan,
Sohibqironim bor mening.

3-o'quvchi:- "Kimki o'zbek nomini, o'zbek millatining kuch-qudratini, cheksiz imkoniyatlarini, uning bashariyat rivojiga qo'shgan hissasini anglamoqchi bo'lsa, Amir Temur siymosini eslashi kerak...", deya ta'kidlagan edi O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov.

4-o'quvchi:- O'g'lonlar qadim-qadimdan Vatan himoyachisi, yurtning suyangan tog'i bo'lib kelgan. Ular bolaligidanoq kamonbozlik, nayzabozlik, merganlik sirlarini o'rganishgan.

(O'quvchilar tomonidan Miraziz A'zamning "O'zbekiston posponlari" she'ri aytiladi)

1- boshlovchi: - Bugun Qurolli Kuchlar safida bizning mard, jasur akalarimiz yigitlik burchini o'tashmoqda. Ular tufayli yurtimizda osoyishtalik hukmron.

2- boshlovchi: - Mustaqilik yillarida armiyamiz har jihatdan takomillashtirildi. Eng zamonaviy harbiy texnika va asbob-uskunalar bilan ta'minlandi, askarlar uchun barcha shart-sharoitlar yaratildi.

1 – boshlovchi: - O'zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlari Quruqlikdagi qo'shinlar, Havo hujumidagi mudofaa

qo'shinlari, Harbiy havo kuchlari, Maxsus qo'shinlar va boshqa harbiy qo'shnlardan tashkil topgan.

2 – boshlovchi: - Bundan ko'rinib turibdiki, bizning qudratli armiyamiz Vatanimiz sarhadlarini, mamlakatimizni har tomonlama ishonchli himoya qila oladi.

O'quvchi: Muqaddas burch – Vatanni,
Matonat–la asramoq.

Mustaqil yurt – jon-tanni,
Mehr-u ont-la asramoq.

O'quvchi: Ona yurt deb kun-u tun,
Osonmas safda turmoq.
Ozod, obod Vatanda
Ogoh bo'lib ot surmoq.

O'quvchi: - Hadislarda ham vatanni sevmay turib, uni himoya qilib bo'lmaydi, uni yurak-yurakdan sevish shart, bu esa tinchlikning asosiy poydevorlaridan biri ekani keltirilgan. Zero, Vatanni sevmoq iymondandir.

(O'quvchilar tomonidan maqollar aytiladi)

1-o'quvchi: Vatan - muqaddas, uning har qarichi aziz.

2-o'quvchi: Vataning tinch – sen tinch.

3-o'quvchi: Tinchlik bilan el ko'karar.
Yomg'ir bilan yer ko'karar.

4-o'quvchi: Yurt qo'risang o'zarsan,
Qo'rimasang to'zarsan.

5-o'quvchi: El qudrati – chin qudrat,
Vatan tuprog'i qimmat.

1 – boshlovchi: - Afsuski, Vatanimiz ravnaqini, ozodligini, obodligini ko'rolmaydigan yovuz kimsalar ham uchrab turadi. Ularning tinch-osuda hayotimizga rahna solish maqsadida amalga oshirgan bir qancha terroristik harakatlarida vatandoshlarimiz, yurtimiz posbonlari mardlarcha halok bo'ldi. Bu insonlar tom ma'noda Vatan himoyachilari edilar. Ularning porloq xotirasi qalbimizda mangu yashaydi. Biz ular bilan faxrlanamiz.

O'quvchi: Qoyalar-u, dalalardan chegaramiz o'tadi,
Balki biror pastqam yerda dushman pisib yotadi.
Vatanga qasd qilganlar niyatiga yetmaydi,

Mustahkamdir chegaralar, biror gʻanim oʻtmaydi.
Oʻquvchi: Chegarani qoʻriqlar eng mard yigitlar,
Yuragi olov-u, asli burgutlar.

Sezgirlik, epchillik eng zarur xislat,
Vatanini sevar shunqorlar behad.

1 – boshlovchi: - Mustaqil Oʻzbekistonimiz Qurolli Kuchlari safida xizmat qilish har bir farzand uchun sharaf, muqaddas burchdir. Botir askar boʻlish uchun chuqur bilim olishimiz, sport bilan shugʻullanib, chiniqishimiz zarur. Ana shundagina biz chinakam yurt posboni boʻlib yetishamiz.

Hamma: Bugun bizlar barkamol avlod,
Shu Vatanning suyanch ardogʻi.
Azim chinor boʻlsa gar Vatan,
Bizlar uning koʻrki, yaprogʻi.

2 – boshlovchi: - El-u yurt, Vatan tinchligi yoʻlida doim hushyor Oʻzbekiston posponlari, bayramingiz muborak boʻlsin.

(Hamma birgalikda: "Men, albatta, serjant boʻlaman" qoʻshigʻini ijro etadi).

1 – boshlovchi: - Qadrli mehmonlar, aziz ustozlar. Barchangizga sogʻlik, baxt-omad tilagan holda Vatan himoyachilari kuni bayrami munosabati bilan oʻtkazilgan tantanali kechamizga yakun yasaymiz.

2 – boshlovchi: - Vatanimiz tinch, osmonimiz musaffo boʻlsin. Ona yurtimiz osoyishtaligini himoya qilayotgan jasur oʻgʻlonlarimiz doimo omon boʻlsinlar!

8-MART – XALQARO XOTIN-QIZLAR KUNI

“ONAJONIMGA TA’ZIM”

1-boshlovchi: Assalom davraning qari-yu yoshi,
Davraning mehmoni hamda yo‘ldoshi.

Aziz ustozlarga ta’zim va kalom,
Tengdoshlarim sizga salom- assalom.

2-boshlovchi: Assalom ustozlar! Mehri giyolar,
Yuragi quyosh-u, qalbi daryolar.

Sizga ham mehmonlar dildan ehtirom,
Qo‘llar ko‘ksimizda deymiz assalom.

1-boshlovchi: -Assalomu alaykum, muhtarama ustozlar,
hurmatli mehmonlar, mehribon ota-onalar, munis opa-singillar
hamda maktabimizning aziz o‘quvchilari.

2-boshlovchi: - Bugungi “Onajonimga ta’zim” nomli badiiy
musiqali tadbirimizga xush kelibsizlar!

1-boshlovchi: Bugun o‘zgachadir jilvayi olam,
Bugun o‘zgachadir borliqda xanda.

Bugun ko‘zlaringga go‘yo quyosh ham,
Shafaq gulshanida tarang chirmanda.

2-boshlovchi: Bu kun tong egnida atlasdan ko‘ylak,
Shafaqqa o‘ralgan qizlarday gulgun.

Ilk bora ko‘z ochib chiqqan boychechak,
Sanamlar qo‘lida intizor bu kun.

1-boshlovchi: - “Xotin-qizlarga munosabat jamiyatimizning
ma’naviy- axloqiy yetukligining o‘lchovi bo‘lib xizmat qilishi
kerak. Ona to‘g‘risida, uning farzandi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik
qilish davlatimizning muqaddas burchidir, ”-degan O‘zbekiston
Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov.

2-boshlovchi: - O‘zbekiston mustaqilikka erishgach
jamiyatimizda xotin-qizlarga e’tibor, g‘amxo‘rlik yildan yilga
beqiyos ravishda ortib bormoqda. Ularning manfaatini himoya
qilish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan.

1-boshlovchi: - Zero, barchamizni shu yorug‘ dunyoga
keltirib, tarbiyalab voyaga yetkazuvchi, o‘z umrini farzandlariga

baxshida etuvchi onalarni qanchalik ulug'lasak, e'zoz ko'rsatsak ham oz.

2-boshlovchi: Sizga qutlov, sizga ta'zim,

Sizga qutlov assalom.

Chin yurakdan sizga dermiz,

Ehtirom she'riy kalom.

1-boshlovchi: Aziz onajonlar, dilbar singillar,

Istiqlol kunida orzu ushalsin.

Toshlardan yursangiz to'shalsin gullar,

Qutlug' poyingizga janbul to'shalsin.

(O'quvchilar tomonidan raqs namoyish etiladi)

1-boshlovchi: -Xo'sh, endi onajonlarimiz bir qo'li bilan dunyoni, bir qo'li bilan beshikni tebratadigan mehribonlarimiz haqida nimalar deysiz.

1- o'quvchi: Ona qanchalik ulug', qanchalik mo'tabar zot!

2- o'quvchi: Ayol! U avvalo volida, Vatan qadar ulug' zot!

3- o'quvchi: Onalardan tog'lar viqor olgan, quyosh haroratni o'ziga singdirgan, gullar tabassumni o'rgangan.

4- o'quvchi: Uning qalb tafti jumlai jahonni ham isitishga qodir.

5- o'quvchi: Onajonlar! Siz mehri daryo, qalbi pok, dilimizning quvonchi, ko'zlarimizning nurisiz.

6- o'quvchi: Onalar. Sizlar haqingizda qanchalar ko'p gapirsak, shunchalar oz tuyuladi.

7- o'quvchi: Sizning ta'rifingizni bayon etishga til ham ojizlik qiladi.

8- o'quvchi: Ona hayot osmonida

Yorqin quyosh bo'lib charaqlar,

Farzand uchun kerak bo'lsa u,

Hatto cho'g'ni kaftida saqlar

Bormi bu dunyoda onadan aziz.

Ona bilan har bir xonadon aziz.

9- o'quvchi: Qatra qondan bino dilbandin,

Boshi uzra bo'lib parvona.

Farzandining oromi uchun,
Oromini yo‘qotar ona.
Bormu bu dunyoda onadan aziz,
Ona bilan har bir xonadon aziz.

10- o‘quvchi: Farzandining oyoqlariga,
Tasodifan kirsam bir tikan.

Eng avval u mushfiq onaning,
Yuragiga sanchilar ekan.
Bormi bu dunyoda onadan aziz,
Ona bilan har bir xonadon aziz.

11- o‘quvchi: Bu dunyoda yo‘qdir quyoshing,
Ulug‘vorlik nomingdan ayon.
Ming tashvishlar qo‘yniga olsin,
Dalda berib bo‘lding namoyon.

12- o‘quvchi: Inson umri turfa xil ohang
Jaranglaydi goh g‘amgin, goh shod
Kurashlarda qalb tortsa tarang
Ko‘z oldingga kelarkan bir zot.

13- o‘quvchi: Xohi dardda, xoh g‘amda behad,
Tipirchilab qiynalarkan jon.

Bu lablardan to‘kilur faqat,
Sening aziz noming onajon.

14- o‘quvchi: Go‘dak chog‘ingdan onagga qarash
Tinmas mehnatkash otangga qarash
Agar ota-onang buyursa bir ish
Farzanddan lozimdir labbay deb turish.

1-boshlovchi: Ayolni ardoqla, ko‘zlaringga surt,
Uning ul pokiza barmoqlarini.

Ayolni ardoqla, ko‘z yoshini art,
Xudo yarlaqagan yanoqlarini.

2-boshlovchi: Ayolni ardoqla ko‘ngliga qara,
Ayama yer yuzin gavharlarini.

Sheroziydek mard bo‘l, xoliga baxsh et,
Dunyoning eng go‘zal shaharlarini.

1-boshlovchi: - Ayol - ona, Ayol tarbiyachi, Ayol-
murabbiy. Ana shu ezgu xislatlarini o‘zida mujassam etgani

tufayli ayol barkamol, komil insonni tarbiyalaydi. Uning hikmat va o'g'itlari, nasihatlarida olam-olam haqiqat jilvalanib turadi.

2-boshlovchi: - Har bir davrning, har bir zamonning o'z ziyoli ayollari borligi uchun ham insoniyat ma'naviyat va ma'rifatdan bebahra qolmagay.

1-boshlovchi: Ajdodi o'tdan bag'ri buyuklari,
Men deganni bag'rin yoqqan suyuklari.
Bor, To'maris, Uvaysiydek buyuklari,
Bir parivash o'zbegimning ayollari.

(O'quvchilar onalar haqida she'r qytadilar)

2-boshlovchi: - Hayotdagi bor go'zallik ayollarga, onaga yarashadi. Negaki, Olloh uni go'zal qilib yaratgan. Quyoshdan mehr, oydan nur, yerdan sadoqat, yulduzlardan chiroy olib, unga hadya etgan.

1-boshlovchi: Baxtimizga hamisha omon bo'ling, sizlar borki hayot bor, baxt-u quvonch bor. Barchamizga olam-olam quvonch ayollik baxti, bekalik taxti, onalik saltanati yor bo'lsin!

2-boshlovchi: Bisyor bo'lsa agar bol ham beqadr
Takror aytilganda rangsizdir kalom
Bu yorug' olamda Vatan bittadir,
Bittadir dunyoda ona degan nom.

(O'quvchilar tomonidan qo'shiqlar ijro etiladi, raqs tushiladi)

1-boshlovchi: -Aziz onaxonlar, kechamizning qatnashchilari! Bugun "Onajominga ta'zim" nomli badiiy kechamizni yakunlar ekanmiz, farzandlar kamolini ko'rishdek shirin baxt sizlarga ham nasib etishini Yaratgandan tilab qolamiz.

2-boshlovchi: - Ezgu niyatlaringiz ijobat bolsin. Labingizdan kulgu, yuzingizdan tabassum arimasin!

21-MART- NAVRO‘Z BAYRAMI

“ASSALOM, NAVRO‘Z”

Tadbir o‘tkaziladigan joy nihoyatda go‘zal, bayramona tarzda bezatilgan. Bir so‘z bilan aytganda - bahor nafasi, Navro‘z nashidasi aks etgan dargohga aylangan. Xonandalarning xonishi, qushlarning chug‘ur-chug‘uri, tadbir qatnashchilarining yuzidagi tabassumi, xush kayfiyat barcha-barchani shodiyona ayyomga chorlab turibdi. Qo‘shiq asta-sekin pastlab, sahnada jarchilar paydo bo‘lishadi. Ular jo‘rlikda ikki tomonga peshvoz borib:

Bor ho, kel ho,

Hamalam ha,

Yo‘l qayda?

Tezda chopib kel,

Yo‘lni topib kel.

O‘ynagani kel,

Quvnagani kel, -deya go‘yo Navro‘zni olqishlashadi:

Jarchilar: -Odamlar-u odamlar,

Bog‘da bitgan bodomlar.

Eshitmadim, demanglar,

Eshitganlar, jilmanglar,

Barcha yaxshi odamlar,

Bayramga tez kelingla-ar.

He-he-he-hey-y!

(Ikki boshlovchi kirib keladi.)

1-boshlovchi: Tabiatda bugun o‘tli uyg‘onish,

Nur bilan kiradi dilga orzular.

Yuraklar shodlikdan etadi xonish,

Labdan labga ko‘char mayin kulgular.

2-boshlovchi: Quyosh kirib kelar har xonadonga,

Barobar ulashar yog‘dusin bugun.

Quyosh tabassumi etar jahonga,

Ushalar dildagi orzular bugun.

1-boshlovchi: - Assalomu alaykum, qadrli ustozlar, muhtaram mehmonlar, aziz o‘quvchilar! Mana o‘lkamizga fasllar kelinchagi bo‘lmish Navro‘z ayyomi, bahor bayrami kirib keldi.

Soylarda buloq suvlari jildiraydi. Kurtak yozayotgan, daraxtlarning shoxlarida sayroqi qushlar biri-biriga navbat bermay chug'urlashadi. Tog' etaklari, cho'pon yaylovlari, bog'bonning bog'i yashil mayсалardan libos kiymoqda

2-boshlovchi: - Ha, kelinchaklar sumbul sochlariga chuchmomalardan chamberak izlaydi. Doshqozonlar osilgan, odamlar g'uj-g'uj. Ona allasi singari mayin yallalar quloqqa chalinadi. Qisqasi, hamma narsa o'zgacha tarovatda. Chunki, Navro'z o'lkamiz bo'ylab kezmoqda. Navro'z ayyomingiz muborak bo'lsin!

1-boshlovchi: Darhaqiqat, Navro'z yashnash va yosharish bayram. Tabiatning uyg'onishiga guvoh bo'lmish yangi kunning boshlanishidir. Bugingi shodiyonamizni boshlab berish uchun so'z hurmatli maktabimiz direktoriga.

2-boshlovchi: "Navro'z" forsha so'z bo'lib "yangi kun" degan ma'noni anglatadi. Sharq xalqlari tomonidan yilning 21-mart kuni kecha bilan kunduz tenglashgan kun yangi kun, yangi yilning boshlanishi- Navro'z bayrami sifatida keng nishonlanadi. U dehqonlar uchun ekin-tikin ishlarini boshlanish pallasiga to'g'ri keladi. Buyuk mutafakkir bobomiz A.Navoiy bu kunni shunday ta'riflaydi.

Vasli aro ko'rdim, teng emish bo'yi-yu sochi

Tun kun ekan zohir o'lur bo'ldi chu Navro'z.

1-boshlovchi: Bahor bilan ayolni egizak deyishadi. Shu bois onalar haqidagi, ayollari haqidagi chiqishlarimiz ham dasturimizdan o'rin olgan.

Ko'klam nafasi ufurib turgan davramizga xush kelibsiz, muhtarama onaxonlar.

2-boshlovchi: Dimoqqa yalpizlar nafasi urar,

Yurakda muattar chechaklar kular,

Bir suluv kelinchak salomga kelar,

Ostonaga bosh ur, aziz mehmonim,

Navro'zing muborak, O'zbekistonim

1-o'quvchi: Osmondagi oydayin,

Yoyilib oqqan soydayin,

Davramizga fayz bergan

Onaxonlarga salom.

2-o'quvchi: Yuzlarimiz gul qilgan,
Savodimiz mo'l qilgan,
Ta'lim-tarbiya bergan,
Ustozlarga ming salom.

3-o'quvchi: Atlas ko'ylak kiyganlar,
Yugurib xizmat qilganlar,
Chaqqonlikdan "dars" bergan
Quvnoq qizlarga salom.

4-o'quvchi: Bayram, deb yig'ilganlar,
She'r-qo'shiq ilinganlar,
Tadbirga navo bergan
San'atkorlarga salom.

5-o'quvchi: Qora ko'zi munchoqday,
Darsga zehni - quchoqday.
Maktabga Navro'z kelgan !
Barchangizga ming salom!

1-boshlovchi: Kelinglar, Bahoroyni davramizga taklif qilamiz. Marhamat, bahoroy. (Bahoroy kirib keladi, "Bahor valsi" past ovozda taralib turadi. Bahoroy savat ichidan rang-barang gullarni sochib kirib keladi)

Bahoroy: Bahordan boshlanar go'zallik fasli,
Yilning ilk tongidir olamda asli.
Navro'z xush ko'rgan xush yashar obod
Baxtga musharrafdir ul inson nasli

-Assalomu alaykum, aziz mehmonlar. Sizlarni Navro'z bayrami bilan chin qalbidan tabriklayman. Ulug' ayyom yurtimizga qut-baraka olib kelsin. Sizlarga uzoq, umr baxt- saodat va hamisha omonlik tilayman.

- Qizlar gulli ro'mol o'rar,
O'zlarin qilib ko'z ko'z
Zamin yangi ko'ylak kiyar
Kelsa Navro'z, bo'lsa Navro'z.
Dilbar qizlar, jo'rajonlar,
Erkin qanot yozing hargiz.
Hur elimga qutlug' ayyom,

Kelsa Navro‘z, bo‘lsa Navro‘z.

1-boshlovchi: Keling, aziz memonlar, qizlarimizning raqsini tomosha qilsak. (Bahor valsiga raqsga tushiladi.)

2-boshlovchi: Endi davramizga eng aziz mehmonimiz Navro‘zjonni taklif qilamiz. Barchamiz “Assalom, Navro‘z, davramizga marhabo”, deymiz. Qani boshladik bir, ikki, uch...

Barcha jo‘r bo‘lib: Assalom, Navro‘z. Davramizga marhabo!

(Sahnaga beqasam to‘n va boshiga do‘ppi kiygan Navro‘z timsolidagi o‘quvchi o‘g‘il bola qo‘lini ko‘ksiga qo‘yganicha kirib keladi.)

Navro‘z: Odamlar-u odamlar,
Bog‘da bitgan bodomlar.
Dildan qish g‘ami ketdi,
Barcha Navro‘zga yetdi.

Childirmani chalingiz,
Raqqosa, ayla xirom.
Bu bayram davramizda,
Barchangiz oling orom.

Olamni turfa gullarga burkab kelgan bahor ayyomi muborak bo‘lsin, azizlar. Bu bahor shunchaki fasl emas, balki u har bir inson umrining bahori. Men barcha chehralarda bahor tarovatini ko‘ryapman.

1-o‘quvchi: (She‘r: *“Tashrifing muborak qutlug‘ Navro‘zim”*)

Ona zamin bag‘rida erimoqda qor,
Sevinchlarim cheki yo‘q, kuzatdim o‘zim.
Intiqmiz yo‘!ingga keldingmi bahor,
Tashrifing muborak, qutlug‘ Navro‘zim!

Seni kutdik yo‘llarga bo‘ldik intizor,
Bayramlarga gultojsan - bu chin so‘zim,
Seni kuylovchi doston - qo‘shiqdar bisyor,
Tashrifing muborak, qutlug‘ Navro‘zim.

2-boshlovchi: Azizlar, keling hozir Navro‘z qo‘shig‘ini tinglaymiz. (*Qo‘shiq ijro etiladi.*)

1-boshlovchi. Navro‘zjon, sen kelishing hamona yeng shimarib ishga kirishadigan bu kunni mehnat bayrami sifatida nishonlaydigan ajoyib insonlarni bilasanmi?

Navro‘z: Eng birinchisi - Dehqon bobo-da. Ana, o‘zlari tashrif buyurmoqdalar.

Bahoroy bilan Navro‘z jo‘r bo‘lib: - Assalomu alaykum, bobo dehqonim,

Sahovati cheksiz, nurli bo‘stonim.

Mehnat bayrami deb sochdingmi doning,

Senga ta‘zimdadir jumla jahonim.

(Davraga Dehqon libosidagi yigit kirib keladi. Mehmonlarga qo‘lini ko‘ksiga qo‘ygancha salom beradi.)

Dehqon bobo: Omoch haydar tinim bilmay,

Dehqon ila qo‘sh ho‘kiz.

Nasibamiz butun bo‘lar

Kelsa Navro‘z, bo‘lsa Navro‘z.

Oллоh, o‘zing asragin ey,

Tegmasin hech yomon ko‘z.

Momolarim ruhlari shod,

Kelsa Navro‘z, bo‘lsa Navro‘z.

- Ha, azizlar, Navro‘z ezgulik bayrami. Bu kun kim nimani niyat qilsa albatta erishadi. Katta-yu kichikning duolariga quloq tutsangiz “Dehqonchilikka baraka bersin, ” deya yaratgandan so‘rashadi. Axir barchamizning rizq-u nasibamiz mana shu dehqonchilik orqasidan- da.

2-boshlovchi: Keldi Navro‘zi olam,

Tasvirga ojiz qalam.

Ming bir qo‘shiq to‘qisam,

Bari-bir hammasi kam.

Ko‘klam yoyilgan gilam

Hammayoq go‘zal ko‘klam

1-boshlovchi: Navro‘z munosabati bilan o‘ziga xos turli taomlar shirinliklar tayyorlanib bayram dasturxoni bezatiladi. Ya’ni sumalak, halim, ko‘k so‘msa, ko‘k chuchvara, do‘lma, bo‘g‘irsoq navro‘z dasturxoni uchun asosiy taomlar hisoblanadi. Xorazmda bahor bayrami dasturxoniga "Navro‘z go‘ja" qo‘yish udumi bor. Navro‘z go‘ja masallig‘i 7 xil dondan iborat bo‘ladi. Jo‘xori, bug‘doy, arpa, tariq, guruch, loviya va mosh.

2-boshlovchi: Bahor ne‘matlarining ichida shox taomi sumalakdir. Erta tongda doshqozonlarda solingan sumalak bir kecha-yu bir kunduz qaynatilib, pishiriladi.

O‘quvchi: Biqir-biqir qaynaysan,

Qo‘zg‘ayverib biz halak.

Qo‘zg‘amasak qo‘ymaysan,

Sumalakjon, sumalak.

Bir kecha-yu bir kunduz,

Atrofingdan jilmaymiz.

Osmonda uxlar yulduz,

Biz uxlashni bilmaymiz.

Bo‘lib ketsin ertaklar,

Shiqir-shiqir toshlaring.

Matonatga yetaklar,

Olovga bardoshlaring.

Niyatni aytib qo‘zg‘ash,

Ota-bobomdan odat.

Xalqimda bo‘lsin yo‘ldosh,

Doim baxt-u saodat.

(O‘quvchilar tomonidan “Sumalak” qo‘shig‘i ijro etiladi.)

1-boshlovchi: An‘analar, urf-odatlar, rasm-rusumlar insoniyat taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. Ular hayotiy zarurat tufayli paydo bo‘lgan va xalqning turmush tarzi, ruhiyati, ma’naviy dunyosi orzu istaklarini ifoda etib jamiyatning ma’naviy axloqiy rivojlanishiga katta ta’sir qilgan. Endi navbat Navro‘z udumlariga.

1-o‘quvchi: Navro‘zda uy-joy tozalaydilar.

2-o‘quvchi: Navro‘zga qadar daraxtlar tanasini oqlaydilar.

3-o‘quvchi: Navro‘zda bug‘doy undirib, sumalak pishiradilar.

4-o‘quvchi: Navro‘zda yaxshi niyatlar qiladilar.

5-o‘quvchi: Navro‘zda yangi kiyim-bosh kiyadilar.

6-o‘quvchi: Navro‘zda Navro‘z taomlari pishiradilar.

1-boshlovchi: Navro‘z biz kimlarning avlodi ekanimizni, qanday ulug‘ va buyuk meros vorislari ekanimizni jumlai jahonga yaqqol namoyon qiladigan ma’naviy bir ko‘zgudir.

Turnalar yurtiga qaytgani kabi,

Bag‘ringga qaytmoqda alyor-baytlaring.

Moziydan xayolchan ko‘rinish berar

Ming shukur, tabarruk, ulug‘ zotlaring!

Buyuk daholarni bergan bo‘stonim,

Yangi yiling qutlug‘, O‘zbekistonim!

2-boshlovchi: Ona diyorimda muborak ayyom,

Tashrif buyurmoqda Navro‘zi olam.

Qalblarda hukmron o‘zgacha shukux,

Yurt uzra kezmoqda bayramona ruh.

1-boshlovchi: Navro‘z olib kelsin tinchlik, omonlik,

To‘kin dasturxon-u ham farovonlik.

Barchamizga qutlug‘ ayyom muborak, do‘stlar! Navro‘z bayramingiz qutlug‘ bo‘lsin!

9-MAY – XOTIRA VA QADRLASH KUNI

“ENG MUQADDAS KUN”

Tadbir o‘tkaziladigan joy xotira kuniga mos tarzda bezatilgan, taassurotlarga boy bo‘lishi kerak. Xonaga ikkinchi jahon urushida halok bo‘lganlar, qatag‘on qurbonlari xotirasini, yoshi ulug‘ o‘taxon-u onaxonlarning keksalik gashtini surayotganligini ifodalovchi suratlari osilgan. Ular orasida Birinchi Prezidentimizning yoshlar bilan tushgan katta hajmdagi surati ko‘zga yaqqol tashlanib turadi.

O‘qituvchi: - Assalomu alaykum, bugungi kechamizga yig‘ilgan aziz o‘quvchilar, davramiz fayziga fayz qo‘shgan ustozlar! Xush kelibsiz! 9-may – Xotira va qadrlash kuniga bag‘ishlangan “Eng muqaddas kun” nomli bayram kechamizni ochiq deb e‘lon qilamiz.

1- boshlovchi: - Xotira o‘zlikni anglash, o‘tmishni doimo yodda tutishga bot-bot da‘vat etib turadigan muqaddas tuyg‘udir. Inson o‘zligini ana shu xotira va qadr tuyg‘usi orqali chuqurroq anglaydi.

2-boshlovchi: - Biz millat, Vatan, istiqlol kabi so‘zlarni hurmat bilan tilga olamiz. Ana shu tushunchalar haqida so‘z yuriganda, fikrimizni beixtiyor xotira tuyg‘usi band etadi. Inson xotirasi –muqaddas. Shuning uchun ham biz ajdodlarimizni esga olib, ezgu ishlarini yod etamiz.

1- boshlovchi: - Muqaddas sanalgan tushunchalar aslida xotira bilan tirik. U nafaqat o‘tmishni unutmashlik, balki bugungi kunni va kelajakni yorqin tasavvur etish ham demakdir.

2-boshlovchi: - Xotira insonni kelajakka teran ko‘z bilan qarashga o‘rgatadi.

1- boshlovchi: - Qadrlash esa oilamiz ustuni bo‘lgan, xonadonlarimizga fayz-u baraka bag‘ishlab, ishlarimizga oq fотиha tilab turgan nuroniylarimizning hurmatini joyiga qo‘yishdir. Qolaversa, insonlarning bir-birlarini qadrlab yurishlari zahirida ham ulug‘ hikmat yashirin.

1-o‘quvchi: Sen mening bobomsan, Xotira

Sen mening momomsan, Qadr.

Bir uzun yo‘llar-a ... Xotira ...

Bir uzun yo‘llar-a ... Qadr ...

2-o‘quvchi: G‘alvirak dunyoning tog‘lari,

Po‘panak bog‘laydi raxtma – raxt .

Xotira - ko‘nglimning dog‘lari,

Qadr – ko‘nglim suyangan daraxt

3 -o‘quvchi: Men-da bir novdangman, Qadr

Sen mening bobomsan, Xotira.

Sen mening momomsan, Qadr,

Bir uzun yo‘llar-a Xotira.

(Tabrik so‘zi.)

1-boshlovchi: - Ota-bobolarimiz oilasini, ahli – ayolini qanchalik avaylagan, ehtiyot qilgan bo‘lsa, Ona-Vatanni ham shunchalik ko‘z qorachig‘idek asragan.

2-boshlovchi: - “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q”, -deya ta’kidlagan edi Birinchi Prezidentimiz. Biz xotira so‘zining yonginasida qadr iborasini ham ishlatamiz. Nima uchun? Chunki Xotira va Qadr bir-birisiz yashay olmaydi. Istaymizki, ana shu ikki oliyjanob tuyg‘u hech birimizdan yiroqlashmasin. Hamisha qalblarimizda aks-sado berib tursin.

SAHNA KO‘RINISHI

Hazin kuy yangraydi. Kuy pastlab, sahnaga barchamizning sevimli shoirimiz marhum Muhammad Yusuf timsolidagi o‘quvchi chiqib keladi

- Assalomu alaykum, aziz mehmonlar, hurmatli ustozlar, zukko o‘quvchilar! Siz – mustaqil yurt farzandi, ozod Vatanning porloq kelajagisiz. Bizning armonlarimiz ro‘yobga chiqishida sizlarning ham ulkan hissangiz bor. Bizni hech qachon unutmang.

G‘amgin xotiramni qitiqlab bugun,

Yorqin hissiyotga bo‘ldingiz sabab.

Ruhingiz bosh uzra uchar tun-u kun,

Har bir ezgu ishda siz menga madad.

Xotira – muqaddas, Xotira – abad!

Puchmoq bu tarixning qa'riga ketgan,

Ne bir allomalar, ne bir botirlar.

Ularning har biri muhrlab bitgan,

Xalqning yuragiga o'chmas xotiralar.

Xotira – muqaddas, Xotira – abad!

(Shoir Muhammad Yusufning “Qodiriy bobom” qo'shig'i ijro etiladi)

1-boshlovchi: - Poytaxtimizdagi Xotira maydoni nomli qutlug' maskanga har kuni yuzlab ziyoratchilar tashrif buyurishar ekan.

2-boshlovchi: - Xotira maydoniga qadam qo'ygan inson borki, bu yerda taassurotlari-u hayratlarsiz ketmaydi. Kimdir Xotira kitobidan yaqin kishisining ismini ko'rib, ko'ziga yosh olsa, kimdir shu kunlarga yetib kelganiga shukrona aytadi. Tinchlikka da'vat etuvchi Motamsaro Ona haykali poyi gulchambarlar bilan to'lib ketadi. Bularning barchasi o'tganlar ruhiga ehtirom ifodasidir .

(Xotira maydoniga o'quvchilar tashrifi orqali kichik sahna ko'rinishi namoyish etiladi)

1-boshlovchi: - Maktabimiz o'quvchilari shu qutlug' maskanga ustozlari boshchiligida ziyoratga keldilar .

1-o'quvchi: - Ustozimiz bizni Xotira maydoniga olib bordilar. Ziyorat chog'ida bir otaxon bilan suhbatlashdik .

Nuroni otaxon: - Bizning yoshligimiz jang-u jadallarda, urush olovi qa'rida o'tdi. Mana, to'qsondan oshdik. Shukur, dorilamon zamonlarda yashayapmiz. Istiqlol tufayli qadr topdik. Mana shu ziyoratgoh siz, aziz farzandlarimiz baxt-u saodatli, osuda hayoti, Vatan ozodligi uchun kurashgan yurtdoshlarimiz sharafiga bunyod etilgan. Tinchlik – ulug' ne'mat, uning qadriga yetishimiz kerak. Biz, qariyalar sizlarning duoyi joningizni qilib yuramiz. Chunki sizlar Yurtboshimiz g'amxorligidan bahramand, mustaqil yurtning baxtiyor bolalarisiz.

2-o'quvchi: - Otaxonning gaplaridan keyin tinchlik, xotirjamlikning qadriga yanada ko'proq yetish kerakligini tushundik.

1-boshlovchi: - Jangohlarda jon fido etgan vatandoshlarimizdan qariyb ming nafarining nomi Xotira kitobiga bitilgan. Birinchi Prezidentimiz tashabbusi bilan yana 3 ming 725 nafar hamyurtimiz nomi aniqlanib, ushbu kitobga qayd etildi.

2-boshlovchi: - Xotira va qadrlash kunini o'tkazishdan maqsad, xalqimizning Vatan ozodligi va mustaqilligi uchun jon fido etgan farzandlarini xotirasini abadiylashtirish, bugungi kunda el-yurtimiz ravnaqida biz yoshlarni tarbiyalashga hissa qo'shayotgan faxriylarni ardoqlashdir.

1-boshlovchi:- Aytish joizki, bu nafaqat jang maydonlarida qurbon bo'lganlarni xotirlash, balki front ortida, urushdan keyingi yillarda fidokorona mehnat qilgan, bugungi dorilomon kunlarimizga hissa qo'shgan insonlarni xotiralash hamdir.

2- boshlovchi: -Muhtaram mehmonlar, aziz ustozlar, qadrli o'quvchilar! Shu bilan Xotira va qadrlash kuniga bag'ishlangan tadbirimizga yakun yasaymiz hamda Xotira va qadr tushunchalari hech biringizni tark etmasligini tilab qolamiz .

1-boshlovchi: Yalpiz, rayhonlardan islarin izlab,

O'n to'rt kunlik oydek yulduzlarin istab.

Bedor nasllarga, bedor ruh kabi,

Ularning umridan turarman so'zlab.

Ulug' ozodlikning shahidlariga,

Bag'rimdan tikladim marmar lavhalar.

Bugun istiqlolning shahidlariga,

Vatan sevgisidan so'ylasin ular.

2- boshlovchi: Yana vatandoshlar ro'yxatlarida,

Tirik inson bo'lib yashaydi ular.

Insof-u adolat sarhadlarida,

Elni yorug' kunga boshlaydi ular.

Ular – qadr degan zanglamas oltin,

Xotira burjida so'nmas yulduzlar.

Har bahor gullaydi bog'lardan oldin,

Ular xazon bilmas yashil ildizlar.

(Mayin musiqa sadolari ostida kechaga yakun yasaladi.)

II. O‘ZBEK XALQI TARIXI VA ADABIYOTIDA ALOHIDA O‘RIN TUTUVCHI BUYUK ALLOMALAR TAVALLUD SANALARIGA BAG‘ISHLANGAN TADBIRLAR SSENARIYLARI

9-FEVRAL – BUYUK MUTAFAKKIR ALLOMA ALISHER NAVOIY TAVALLUD TOPGAN KUN

“ZAMONLARGA ZAMONDOSH SIYMO”

Sinfxonasi yoki maktab zali chiroyli qilib bezatiladi. Devorga Alisher Navoiy rasmi osilib, uning atrofida shoirning asarlari haqida ma’lumotlar joylashtiriladi. O‘quvchilar tomonidan Navoiy ijodiga bag‘ishlab chizilgan rasmlar ham osib qo‘yiladi. Musiqa sadolari ostida sahnaga boshlovchilar va tadbir ishtirokchilari chiqishadi.

O‘qituvchi: – Assalomu alaykum, aziz ustozlar, hurmatli otanalar, tadbirimizga tashrif buyurgan qadrlı mehmonlar! Bugun benazir inson, buyuk alloma va shoir Alisher Navoiy bobomizning tavallud topganlariga 576 yil bo‘ldi. Mazkur sanani nishonlash uchun uyushtirilayotgan “Zamonlarga zamondosh siymo” deb nomlangan tadbir kechamizga xush kelibsiz!

(Minhojiddin Mirzo she’ri va Dilorom Omonullayeva musiqasiga bastalangan “Aziz bo‘ston- O‘zbekiston” qo‘shig‘i o‘quvchilar jo‘rligida ijro etiladi va tadbir boshlanadi).

1-boshlovchi: Biz o‘zbek yoshlari, so‘z naqqoshlari,

Bu qadim Turonning tillaqoshlari,

Gohida tinch daryo, goh beboshlari

Hatto maysaranga ham titroq bo‘lamiz,

Vatan, biz To‘maris, Shiroq bo‘lamiz.

2-boshlovchi: To‘rt fasling ham gulzor, boychechak fasli,

To‘rt fasling ham Vatan, bizniki asli,

Barkamol avlodning barkamol nasli,

Tog‘lari yigitlar bilak bo‘lamiz!

Vatan, sen deb urgan yurak bo‘lamiz!

(Musiqa sadolari ostida Alisher Navoiy surati slayd orqali ko‘rsatiladi.)

1-boshlovchi: Yillar o‘tar, o‘tar asrlar
Dunyoga keladi yangi avlodlar
Lekin tarix yodidan chiqmagay zinhor,
Elim deb yashagan buyuk ajdodlar.

2-boshlovchi: Navo va seherga to‘la bir bo‘ston
Bo‘stonki, gullagay yoz-u qish har on
Bog‘boni hazrati Navoiy erur
Har g‘uncha yangidan bitta so‘z bo‘lur.
Bugun yana bir yosh oshar Navoiy
Avlodlar qalbida yashar Navoiy.

1-boshlovchi: Besh asrkim, nazmiy saroyini
Titratadi zanjirband bir sher.
Temur tig‘i yetmagan joyni
Qalam bilan oldi Alisher.

-Buyuk bobomiz Alisher Navoiy chindan ham insoniyat tarixida so‘z mulkining sultoni degan nom bilan muhrlangan. Ul zot 1441-yil 9-fevralda Hirot shahrida dunyoga kelgan. Yoshligidan kitobga mehr qo‘yib, odobli va zehnli bo‘lib ulg‘aygan. Ko‘plab g‘azallar, dostonlar va ruboiylar yozgan. Bolaligidanoq Fariduddin Attorning butun boshli “Mantiq ut-tayr” asarini yodlab, iqtidori bilan ko‘pchilikni lol qoldirgan.

2-boshlovchi: Baland – baland so‘zlagayman men,
Vazmin, puxta o‘ylagayman men.
Osmonlarni bo‘ylagayman men
Navoiyni o‘qiganimda.

-Keling, endi navbatni o‘quvchilarga bersak, ular buyuk shoir ijodidan yod olgan g‘azal va ruboiylarini aytib beradilar.

(Bir necha o‘quvchi sahnaga chiqib, Alisher Navoiy ijodidan ruboiy va g‘azallar, hikmatli so‘zlar aytadilar).

1-o‘quvchi: Jism bo‘stonig‘a shajar so‘zdur,
Ruh ashjorig‘a samar so‘zdur.

2-o‘quvchi: G‘urbatda g‘arib shodumon bo‘lmas emish,
El anga shafiq-u mehribon bo‘lmas emish.
Oltin qafas ichra gar qizil gul butsa,
Bulbulg‘a tikondek oshyon bo‘lmas emish.

3-o‘quvchi: Tilga ixtiyorsiz -elga e’tiborsiz.

4-o‘quvchi: Boshni fido ayla ato qoshig‘a,
Jismni qil sadqa ano boshig‘a.

Tun-kunningga aylagali nurposh,

Birisin oy ayla, birisin quyosh.

So‘zlaridan chekma qalam tashqari,

Xatlaridan qo‘yma qadam tashqari.

5-o‘quvchi: Bilmaganni so‘rab o‘rgangan olim, orlanib
so‘ramagan o‘ziga zolim.

6-o‘quvchi: Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur, qatra-qatra yig‘ilib
daryo bo‘lur.

7-o‘quvchi: Umrni zoye etma, mehnat qil,
Mehnatni saodating kaliti bil.

8-o‘quvchi: Donau dur so‘zini afsona bil,
So‘zni jahon bahrida durdona bil.

1-boshlovchi: - Bobomiz Alisher Navoiy o‘zbek tili
asoschisidir, to‘g‘rimi, o‘rtoqjon?

2-boshlovchi: - Ha, albatta. Bobomiz kabi biz ham tilimizni
asrab-avaylashimiz kerak. O‘zbek tili Davlat tili ekanligi
Konstitutsiyamizda ham belgilab qo‘yilgan. Marhamat, ushbu
modda bilan tanishing.

(1-o‘quvchi chiqib, O‘zbekiston Respublikasi
Konstitutsiyasining 4-moddasi bilan tanishtiradi. Slaydda
O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ko‘rsatiladi.)

*(Sahnaga 3 o‘quvchi va Navoiy siymosi (Navoiy qiyofasidagi
o‘quvchi) chiqadi)*

1-o‘quvchi:- Aziz bobojon! Siz betakror va boqiy siymosiz.
Siz yaratgan asarlar samodek tiniq, tongdek shaffof, musiqiy
ohanglar bilan yo‘g‘rilgan.

Asarlaringizni o‘qir ekanmiz, har bir satringizdan o‘z
xalqingizga, insoniyatga cheksiz mehringiz, u bilan bir jon, bir tan
ekaningizni anglash qiyin emas.

Vatan tarkini bir nafas aylama,

Yana ranji g‘urbat havas aylama.

2-o‘quvchi: - Aziz bobojon! Siz jozibador baytlaringiz bilan insoniyatga so‘zning sehrini, hayotning ma’nosini, saodatning eshigini ochib berayotgandeksiz. Bu gulshanda saodatning kaliti odamlarga yaxshilik qilishda ekanligini anglatdingin,

Bu gulshan ichra yo‘qtir baqo guliga sabot,

Ajab saodat erur yaxshilik bila chiqsa ot.

3-o‘quvchi: - Ulug‘ ustoz! Siz g‘azal mulkining sulthonisiz. Siz bir umr:

Odamiy ersang demagil odami,

Onikim yo‘q xalq g‘amidin g‘ami, -

degan shioringizga sodiq qoldingiz.

(o‘quvchilar chiqib ketadilar)

Ovoz:

Jahonki muqaddas neni ko‘ribdi,

Bariga onasan, ey qodir hayot.

Asrlar qa‘ridan boqib turibdi,

Nurli bu yuzlarga nuroniy bir zot.

Shu buyuk o‘g‘lingni ardoqlab dildan,

Xalqim, ta‘zim etsang arzigay tamom.

Uning nomi bilan birga bitilgan

Dunyo daftariga o‘zbek degan nom.

(Mumtoz kuy chalinadi. Navoiy o‘z ijodxonasida.....)

Kecha kelgumdir debon ul sarvi gulro‘ kelmadi,

Ko‘zlarimg‘a kecha tong otquncha uyqu kelmadi.

Lahza-lahza chiqdimu chektim yo‘lida intizor,

Keldi jon og‘zimg‘ayu ul sho‘xi badxo‘ kelmadi.

(asta-sekin Navoiy siymosi sahnadan chekinib, kuy- qo‘shiq va raqsga ulanadi. Munojot.)

1-boshlovchi: - Endi navbat o‘quvchilar tomonidan tayyorlangan “Mir Alisher va xasta odam” deb nomlangan sahna ko‘rinishiga. Marhamat.

(“El desa Navoiyni” kitobidan. To‘plovchi : M.Jo‘rayev).

Sahna to‘rida Mir Alisher Navoiy kitob mutolaa qilib o‘tirganda, uning oldiga bir odam kelib, salomatligi yomonligidan shikoyat qiladi:

- Mavlono Mir Alisher, siz ko‘pni ko‘rgan, dono odamsiz, shoirsiz, adolatparvar amirsiz, ammo tabiblikdan xabaringiz yo‘qligi juda yomon-da.

Mir Alisher Navoiy:- Qayeringiz og‘riydi?

Bemor odam: - O‘zim ham bilmayman, hamma joyim og‘riydi, ammo tanamda issig‘im yo‘q.

Mir Alisher Navoiy: - Unday bo‘lsa, bir shifosi bor. Har kuni ertalab bir namoz vaqti, kechqurun yana bir namoz vaqti yer chopib, qolgan paytlarda o‘z kasbingizni qiling, inshoolloh, tezda tuzalib ketasiz...

1-boshlovchi: - Oradan bir necha kun o‘tgach, haligi odam yana Mir Alisher oldiga kirib kelibdi.

- Meni tanidingizmi, taqsir?

Mir Alisher Navoiy :-Tanishga tanidimku-ya, ammo salomatligingiz qalay?

Bemor odam: - Otdayman. Shoirdan ham tabib chiqar ekan-da, aytganingizni qilib, tamomila darddan xalos bo‘ldim. (Mamnun qiyofada).

1-boshlovchi: -Mana aziz o‘quvchilar, bobomiz Mir Alisher Navoiy bilimli bo‘lishi bilan birga juda zukko inson bo‘lganlar. Siz ham sahna ko‘rinishimizdagi bemor odamga o‘xshab qolmang.Mehnat qilishdan, bilim olishdan charchamang.

2-boshlovchi: - Navbat yana o‘quvchilarimizga, ular Tursunboy Adashboyev, Xurshid Davron va Abdulla Oripovlarning Alisher Navoiyga bag‘ishlab yozgan she’rlaridan namunalar o‘qishadi.

(O‘quvchilar she’rlarni ifodali o‘qishadi)

1-boshlovchi: Mutafakkir alloma A.Navoiyni haqli ravishda “Zamonlarga zamondosh siymo” deymiz. Chunki uning hayoti, butun faoliyati va ijodi barcha zamonlarda dolzarb. Shu o‘rinda bu buyuk zotga muhtaram O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov bergan ta’riflarni keltirsak.

(Monitorda ko‘rsatiladi: “Agar bu zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir”.

2-boshlovchi: - Mana, o‘quvchilar, qadrli mehmonlar va ota-onlalar. Bugungi tadbirimiz ham nihoyasiga yetib qoldi. Biz nomi dunyoga mashhur ajdodlarning avlodlarimiz! Ularning xotirasini yod etib, ularga munosib, Vatan ravnaqiga hissa qo‘shadigan insonlar bo‘lib yetishishimiz kerak. Buning uchun ko‘p o‘qib, buyuk bobokalonlarimiz hayot yo‘lini o‘rganmog‘ingiz va ulardan o‘rnak olishimiz darkor. Tadbirdan shunday xulosa chiqarsak (slayd): Navoiyni bilish o‘zlikni bilish, Navoiyni sevish millatni sevish, Navoiyga sadoqat eng ezgu insoniy qadriyatlarga sadoqat demakdir.

Birin-ketin o‘tib borar asrlarning karvonlari,
Oh, nechog‘lik xatarlidir uning oshar dovonlari,
Inson zoti murodiga azal-abad yetar edi.
Ushalsa gar umidvor zot Navoiyning armonlari.
Fursat keldi do‘st-u g‘anim kimligini bilay bu kun.
Jami bashar farzandiga saodatlar tilay bu kun,
Ko‘kka boqib sahar chog‘i iltijolar qilay bu kun,
Nurga to‘lsin aziz bobom, Navoiyning makonlari.

14-FEVRAL –ZAHRIDDIN MUHAMMAD BOBUR TAVALLUD TOPGAN KUN

“ANDA JONIM QOLDI MENING”

Sahna bayramona ruhda bezatilgan. To‘rda Zahriddin Muhammad Bobur portreti, shuningdek, shoir asarlari, bukletlar. Uning she‘rlaridan, ruboiylaridan parchalar yozilgan plakatlar osilgan. (Shoirning “Yaxshiliq” g‘azaliga bastalangan qo‘shiq yangraydi. Sahnaga ikki boshlovchi chiqib keladi).

1-boshlovchi: Qadim – qadimlardan tinmas dostonim,
Haqdan nazar tushgan go‘zal bo‘stonim,
Alpomishlar yurti nurli makonim,
Assalom ona yurt, O‘zbekistonim!

2-boshlovchi: Tanti el ko‘rmadim, seningdek xalqim,
Shirin so‘z ko‘rmadim, seningdek xalqim,
Toza dil ko‘rmadim, seningdek xalqim,

Assalom ona yurt, O‘zbekistonim!

1-boshlovchi: -Andijon bag‘ridan uchib bir yulduz,
Hindiston tojiga gavhardek qunduz.

Otash yuragida aylanar bir so‘z,
Anda jon qoldiku, anda jon qoldi.

2-boshlovchi: Dunyo charxpalagi tinmay aylanadi,
Taloto‘p zamonlar o‘taveradi.

Asrlar qa‘ridan bir so‘z ingranar,
Anda jon qoldiku, anda jon qoldi.

1-boshlovchi: - Assalomu alaykum, hurmatli ustozlar, qadrli ota-onalar va aziz o‘quvchilar! Bugun biz shoh va shoir, davlat arbobi hamda buyuk sarkarda Zahriddin Muhammad Bobur tavalludiga 534 yil to‘lganligi munosabati bilan tayyorlangan bugungi “Anda jonim qoldi mening” deb nomlangan ma’naviy – ma’rifiy tadbirmizni sizning e’tiboringizga havola qilishni niyat aylaganmiz.

2-boshlovchi: - Zahriddin Muhammad Bobur 1483-yil 14-fevralda Andijonda Umarshayx Mirzo xonadonida tavallud topdi. Saroyda shahzodalarga xos munosib ta’lim-tarbiya olgan Bobur otasi vafotidan so‘ng 12 yoshda taxtga o‘tirdi.

1-boshlovchi: -Bobur toj-taxt uchun bo‘lgan urushlar tufayli Andijondan chiqib ketib, Hindistonda buyuk boburiylar sulolasiga asos soldi. Hindistonda qudratli saltanat o‘rnatgan, davlatning gullab-yashnashiga katta hissa qo‘shgan sevimli shoirimiz 1530-yil Agra shahrida olamdan o‘tdi.

2-boshlovchi: - U umri davomida “Boburnoma”, “Mubbayin al-zakot” (“Zakot bayoni”), “Xatti Boburiy”, “Harb ishi” kabi ko‘plab nasriy va she’riy asarlar yaratdi.

(O‘quvchilar sahnaga chiqishadi va birin –ketin Bobur ruboiylaridan aytishadi).

1-boshlovchi: -Davron meni o‘tkardi saru samondin,
Ayirdi meni bir yo‘la xonu mondin.
Goh boshima tosh, goh baloyi ta’na.
Nelarki boshimg‘a kelmadi davrondir.

2-boshlovchi: -Har ishda ishtob qilmag‘aysan,
Bu demak murodga yetmag‘aysan.

1-boshlovchi: -Birovningkim birovdin ko‘ngli qolur,
Kishi yuz so‘z birla ko‘nglin olur.

2-boshlovchi: - Yod etmas emish kishini g‘urbatda kishi
Shod etmas emish ko‘ngilni mehnatda kishi
Ko‘nglim bu g‘ariblikda shod o‘lmadi oh
G‘urbatda sevinmas emish albatta kishi.

1-boshlovchi: -Necha nafsing‘a bo‘lursan tobe,
Necha umringni qilursan zoye.

1-o‘quvchi: - Bobur Hindistonda shoh bo‘lsada, bir umr
Vatanini, uning tuprog‘ini, bag‘ri keng odamlarni sog‘inib
yashadi.

2-o‘quvchi: - U o‘zga yurt toj-u taxtidan vatanining bir
siqim tuprog‘ini afzal deb bildi va shu armon bilan yashab o‘tdi.
Shoir g‘azallarida, ruboiylarida armonga aylangan Vatan
sog‘inchiga his etamiz.

SAHNA KO‘RINISHI

(Mayin musiqa yangraydi. Bobur taxtga o‘tiribdi. Atrofidagi
uch-to‘rt mulozimlari bilan mamlakatdagi siyosiy ahvol, soliqlar
to‘g‘risida suhbatlashmoqda. Shunda xos soqchi kelib bir kishi
Boburning huzuriga kirish uchun izn so‘rayotganini aytadi.)

Bobur: - Ruxsat, huziringa olib kelingiz!

(Notanish kishi qo‘lida qovun bilan kirib keladi va ta‘zim
qiladi)

Kishi: -Assalomu alaykum, hazratim. *(Ta‘zim bajo
keltiradi).* Men savdogarman. Sizning huzuringizga kelishimdan
maqsad, sizga Andijondan keltirilgan qovundan olib keldim. Ona
yurtingizdan olib kelingan bu ne‘matdan tatib ko‘ring, hazratim.
Zora sog‘inchingizga malham bo‘lsa. *(Bobur sekin taxtdan tushib
kelib titroq qo‘llari bilan qovunni oladi. Uni uzoq hidlab yuz
ko‘zlariga surtadi va o‘ta g‘amgin holda gapiradi.)*

Bobur: -Rahmat, sizga. Vatanimning xush bo‘ylarini olib
kelgan bu qovunda Andijon shamoli-yu musaffo havosini,

tabarruk tuprog'ini isini, beqiyos ekinzorlarining go'zalligini, bolaligim o'tgan go'zal vodiylar manzarasini, dilkash xalqimning nafasini, ota –onam mehrini tuydim. Kindik qonim to'kilgan Vatan –mening beshigim, sog'inchim, va tuganmas armondir. *(Hazin ohangda ruboiy o'qiydi).*

Tole yo'qki jonimga balolig' bo'ldi,
Har ishni ayladim –xatolig' bo'ldi.
O'z yurtni qo'yib hind sari yuzlandim,
Yorab, netayin, ne yuz qoralig' bo'ldi.

(Shundan so'ng S.Nazarxonning "Ulug'imsan, Vatanim" qo'shig'i yangraydi. Qo'shiq sadolari ostida qovun quchgan Bobur, mulozimlari, so'ngra haligi savdogar sahnani sekin-asta tark etadilar).

1-boshlovchi: Xalqim, buyuk o'g'ling, buyuk shoh o'g'ling,
Boburning qalbida bir armon qoldi.
Nolasi kuydirar toabad bag'ring,
Anda jon qoldimu, anda jon qoldi.

2-boshlovchi: Har kimsaning bo'lsin o'z boshpanasi
Har kimsa o'z kulbasida davrin sursin.
Odamni-ku aytmay turay, bu dunyoda
Hatto qushning yot butoqda ini qurtin.

1-boshlovchi: -Zahriddin Muhammad Bobur turk va fors tillarida samarali ijod qilgan buyuk iste'dod egasi edi. U ruboiy, tuyuq, qit'a, masnaviy, fard kabi janrlarda go'zal asarlar yaratdi. Ularni to'plab ikki –"Hindiston devoni" va "Qobul devoni"ni tuzdi. Ammo "Qobul devoni" hozirgacha topilgan emas.

2-boshlovchi: -Bobur chuqur falsafiy ma'noga ega ruboiylari bilan adabiyotimizda alohida o'rin egallaydi. Ichki kechinmalar, goho shodlik, goho g'amgin kayfiyatlarning to'rt misrada mukammal ifodalanishi uning o'tkir ruboiyshunos shoir ekanligidan dalolat beradi.

1-o'quvchi: Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidur,
Har kimki jafo qilsa, jafo topqusidir.
Yaxshi kishi ko'rmagay yamonlig' hargiz,
Har kimki yamon bo'lsa, jazo topqusidir.

2-o'quvchi: Ko'pdin berikim, yor-u diyorim yo'qdur,

Bir lahza –yu, bir nafas qarorim yo‘qdur.

Keldim bu sori o‘z ixtiyorim birla,

Lekin borurimda ixtiyorim yo‘qdur.

1-boshlovchi: -Buyuk shoir Zahriddin Muhammad Bobur she’riyati o‘zining nodir va badiiy qimmatini bilan ham adabiyotimizda katta o‘rin egallagan. Uning “Boburnoma” asari esa bebaho tarixiy badiiy asar sifatida dunyo miqiyosida tan olingan .

1-boshlovchi: -Sevimli adibimiz Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” yoxud “Bobur”, “Avlodlar dovoni”, “Humoyun va Akbar” kabi tarixiy romanlari biz sevgan shoir Bobur hayoti va ijodi, Hindistonda u asos solgan qudratli saltanat vakillari – Boburiylar sulolasi haqida keng ko‘lamga ega tarixiy ma’lumotlarni bera oladi. Bu asarlarni o‘qir ekanmiz, buyuk shoirimizga mehrimiz yanada oshadi.

2-boshlovchi: Andijon ko‘nglimda ko‘kargan olam

Yolimga termulib tolgan chorbog‘lar

Meni sog‘inadi sog‘inmasam ham,

Bog‘i Boburdagi momaqaymoqlar.

1-boshlovchi: O‘zing ulg‘aytirgan niholingga boq

Na bo‘ying yetar, na qo‘ling yetar

Bolangdan shoh chiqsa – o‘zga yurtida shoh

Shoir chiqsa bari daydib ketar.

2-boshlovchi: Bevafo dunyoning ishlarin ko‘rsang,

Sen qurgan saroyga hind mehmon tanlar

Balki ahil bo‘lsang, sal kengroq bo‘lsang

Bag‘ringda bo‘lardi Tojimahallar.

-Hurmatli mehmonlar va qadrli o‘quvchilar, shuning bilan shoh va shoir Bobur tavalludiga bag‘ishlangan bugungi tadbirimiz o‘z nihoyasiga yetdi.

(Kecha Boburning “Yaxshiliq” qo‘shig‘ining davomi bilan yakunlanadi).

9-FEVRAL- SOHIBQIRON AMIR TEMUR TAVALLUD SANASI

“SOHIBQIRON BOBOKALONIMIZ”

Sahna milliy ruhda bezatiladi. O‘rtaga bobomizning portreti qo‘yiladi. Amir Temur haqida berilgan quyidagi fikrlar monitorda aks ettiriladi:

“Tengsiz azm-u shijoat, mardlik va donishmandlik ramzi bo‘lgan bu mumtoz siymo buyuk saltanat barpo etib, davlatchilik borasida o‘zidan ham amaliy, ham nazariy meros qoldirdi. Ilm-u fan, madaniyat, bunyodkorlik, din va ma’naviyat rivojiga keng yo‘l ochdi.”

(I.A. Karimov.)

1-boshlovchi: Ey, menga ertaklar so‘ylagan zamin,
Ergashib izingdan qolmasman sening.

O‘zgalar nazdida Bog‘i Eramning,
Jiydang yaprog‘iga olmasman sening.
Vatan, qayda bo‘lmay sen hamrohimsan.
Bobolarim yotar sajdagohimsan.

2-boshlovchi: Oltin beshik uzra allalar aytib,
Hamisha bedorim-onaizorim.
Jilg‘asi jarangi tongda uyg‘otib.
Yuragimga kelgan bahorim,
Vatan, qayda bo‘lmay sen hamrohimsan.
Bobolarim yotar sajdagohimsan.

1-boshlovchi: -Assalomu alaykum, aziz va mehridaryo ustozlar! Hurmatli ota-onalar va davramiz mehmonlari! Sohibqiron Amir Temur bobomiz tavalludining 681 yilligiga bag‘ishlab o‘tkazilayotgan ma’naviy-ma’rifiy kechamizga xush kelibsiz!

2-boshlovchi: Har qancha faxr etsa arziydi o‘zbek,
Balqibsan bir zotning yuksak shonida.
Temurbek yulduzi oltin qoziqdek,
Charaqlar buyuklarning osmonida.

1-boshlovchi: Vo ajab, yolg‘iz bir zanjir saroyning
O‘chini O‘rdadan ola bilgan zot.

Turon deb atalmish kattakon joyning,
Bag‘riga shuncha yil sig‘mabdi, nahot.

1-o‘quvchi: -Amir Temur- buyuk shaxs, kuragi yerga tegmagan sarkarda, yirik davlat arbobi, qonunshunos, mahoratli me‘mor, notiq, ruhshunos, shu bilan birga, el-yurtini sevgan va uni mashhuri jahon qilgan inson.

2-o‘quvchi: -Bobomiz Amir Temur 1336 - yilning 9 - aprelida qadim Kesh shahriga qarashli Xoja Ilg‘or qishlog‘ida Tarag‘ay Bahodir va Tagina xotun xonadonida tavallud topganlar. Uning to‘liq ismi Amir Temur Ibn Amir Tarag‘ay ibn Amir Barqul.

3-o‘quvchi: - Otasi Amir Tarag‘ay o‘ziga to‘q, badavlat kishi edi. Temurning yoshligi va yigitlik davri mamlakat og‘ir bir vaziyatda qolgan davrda kechdi.

3-o‘quvchi:- Mashhur tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiyning yozishicha, Chiston hokimining qudratli bir g‘animi bo‘lib, u bilan bo‘ladigan jangga hokim mard va dovyurak bobomiz Amir Temurni safarbar etadi. Bobomiz yigitlariga bosh bo‘lib, jangga kiradi. O‘shanda Amir Temur o‘ng qo‘l va o‘ng oyog‘dan og‘ir jarohat oladi. Bu voqea 1364-yilda sodir bo‘lgandi.

4-o‘quvchi:- Bobomizning tarix oldidagi xizmatlari beqiyos. U kishi mamlakatda kuchayib ketgan tarqoqlikka barham berib, el-u yurti o‘z tug‘i ostida birlashtiradi. Markazlashgan yirik davlatga asos soladi.

5-o‘quvchi:- Bu bilan ziroatchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq va madaniyat rivojiga mustahkam zamin yaratadi.

6-o‘quvchi:- Bugun “Temur va temuriylar davlati”, “Temuriylar madaniyati”, “Ulug‘bek va Samarqand astrologiya maktabi”, “Bobur”, “Boburiylar saltanati” kabi qutlug‘ so‘zlarni nafaqat o‘zbekning, balki butun dunyo xalqlarining tarix sahifalarida uchratar ekanmiz, shu unutmazlik kerakki, ular zahirida Amir Temurning ulkan xizmatlari bor.

7-o‘quvchi:- Bobomiz Amir Temur qator xalq va yurtlarga mustamlakachilar zulmidan ozod bo‘lishga yordam berdi. O‘sha

davrning eng qudratli podshosi Yildirim Bayazidni (1380-1402) tor-mor keltirib, Yevropa xalqlarini tutqunlikdan xalos etdi.

8-o‘quvchi:- Oltin O‘rda xoni To‘xtamishni yengib, Rossiyaning mo‘g‘ullar hukmronligidan qutilishini qariyb 300 yilga tezlashtiradi.

9-o‘quvchi:- Bobomiz Turkiston zaminini ziroatchilik, hunarmandchilik, ilm-fan va madaniyat rivojlangan ilg‘or mamlakatga aylantiradi.

10-o‘quvchi:- Amir Temur sa‘y-harakatlari bilan obod etilgan shaharlar, kasabalar, qishloqlarni, Samarqand, Shahrisabz, Yassi (Turkiston) singari shaharlada qad ko‘targan imoratlarni aytmay sizmi? Ular hozir yurtimiz ko‘rkiga ko‘rk qo‘shib, ulug‘vorlik va matonat ramzi bo‘lib viqor to‘kib turibdi.

11-o‘quvchi:- Bobomiz hayotlik davridayoq, uning harbiy san‘atida davlat boshqarish uslubiga bag‘ishlangan “Temur tuzuklari” deb nomlangan asari shuhrat topdi.

12-o‘quvchi:- Bobomiz o‘z davlatining shon-shuhrati uchun poytaxt-Samarqand obodonligiga alohida ahamiyat bergan. Uning har bir zafarli voqeani, sevinchli hodisani muhtasham me‘moriy obida qurish bilan nishonlaydigan odati bo‘lgan.

13-o‘quvchi:- Shahrisabzda qad ko‘targan mashhur Oqsaroy peshtoqlariga “Agar bizning qudratimizga shubha qilsang, biz qurdirgan binolarga boq!” degan xitobnoma bitilgan.

14-o‘quvchi:- Bobomiz Samarqand atrofida ko‘pgina go‘zal bog‘lar barpo qiladi. Bog‘i Dilkusho, Bog‘i Chinor, Bog‘i Behisht, Bog‘i Baland, Bog‘i Nav, Davlatobod, Bog‘i Shamol, Bog‘i Jahonnoma, Bog‘i Maydon kabi chorbog‘lar va ulardagi go‘zal ko‘shklar o‘sha davr bog‘dorchilik san‘atining yuksak namunalaridir.

15-o‘quvchi:- Bobomiz Amir Temur Xitoy va Hindistondan O‘rta Osiyo orqali Yaqin Sharq va Yevropa mamlakatlariga boradigan xalqaro savdo yo‘li- Buyuk Ipak yo‘lida savdo karvonlari qatnovi xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha muhim chora-tadbirlar ko‘rgan. Bu esa Amir Temur davlatining tashqi-iqtisodiy va elchilik aloqalari barqarorligiga olib keldi.

1-boshlovchi:

Jahonni mo‘g‘ullar istilosidan,
Qutqarib qololgan barlosiy botir.
Qocholmay taqdirning taqozosidan,
Fotih deb nom olmish o‘zi ham oxir.

2-boshlovchi:

Eng ulug‘ binolar mujssam bo‘lmish,
Olamda tengi yo‘q Samarqand-ku bor.
Temurbek jang-jadal shavqiga to‘lmish,
Qo‘lida shamshir-u tagida to‘lpur.

1-o‘quvchi: Samarqandda qoldi Bibixonim,

Yo‘llar qarab toldi Bibixonim.

O‘zbek seni o‘zbek qilguncha
Qirq yil otdan tushmadi sulton.

Maqto‘v-manzil malomatlarga,
Shohni riyo yetaklar jarga,
Qayrilmadi xushomadlarga,
Yolg‘onlarga uchmadi sulton.
Garchi imo qilsa-qilmayin,
O‘ttiz o‘lka jilovda tayin.

Bir qultum ham manmanlik mayin,
Tatimadi, ichmadi sulton.

2-o‘quvchi: Bir to‘kilib tag‘in qomat tikladik,

Yelkalarga millat yukin yukladik.

Ozod vujudlarga ruh bo‘ldi bino,
Qay kun tildan uchdi qadrdon kalom-
Dunyolarni quchdi o‘zbek degan nom!

Boshni ne toshlarga urdi bu diyor,
Necha vayron bo‘ldi, qurdi bu diyor.

Tojmahal me‘mori, Nilning mirobi.

Amir Temurlarning yurti bu diyor.

Bizni yo‘qlaganga bizdan ham salom,

Dunyolarni quchdi o‘zbek degan nom!

(O‘quvchilar tomonidan Amir Temur hikmatlaridan aytiladi)

1.Kuch- adolatda.

2. Oq bo'lsang, ont ichma.
3. Shijoatli kishilardan do'st tut, chunki tangri taollo jasur kishilarni ardoqlaydi.

4. Yaxshini yomon kunda sina.

5. Aqlli dushman johil-u nodon do'stdan afzalroq.

6. Bir kulik adolat ming kunlik toat-ibodatdan afzal.

1-boshlovchi: Ollohim baxsh etmish shunchalar shukuh,
Komil-u yetukdir shajara zoti.

Bir yon Bibixonim, bir yonda Shohrux,

Bir yonda Ulug'bek – sinmas qanoti.

2-boshlovchi: Ne baxtkim, tuqqan yurt bo'lganda ozod,
Muborak vatanga qaytib kelmishsiz.

Quloq tutgaymi deb, noahil avlod.

Tashakkur bizlarni ko'zga ilmishsiz.

1-boshlovchi:- O'zbekiston Respublikasi Birinchi prezidenti I.A.Karimov tashbbusi bilan 1996-yil Amir Temur yili deya nomlanib Amir Temur ordeni ta'sis etildi. Bobomizning haykalari Samarqand, Toshkent, Shahrisabz shaharlariga o'rnatilib, ular hozirda savlat to'kib turibdi.

2-boshlovchi: -Amir Temurning uzuk-muhrlaridagi "Kuch - adolatda" deya bitilgan yozuv biz avlodlar qalbida ham mangu muhrlanajak va hayot yo'limizda dasturul amal bo'lib hizmat qilgusidir.

1-boshlovchi: - Bizlar dunyolarni o'z ilm-u salohiyati, ma'rifat va madaniyati, iymon-e'tiqodi, mehr-u muhabbati, yuksak ma'naviyati bilan hayratlantira olgan millat farzandlarimiz. Biz buyuk bobolarimiz bilan faxrlanamiz hamda ularga munosib vorislar bo'lamiz.

III. ONA-TABIAT, JAMIYAT HAYOTI BILAN BOG‘LIQ TURLI MAVZULARDAGI TADBIR SSENARIYLARI

“KOINOTGA SAYOHAT”

Boshlovchi: Bir bor ekan, bir yo‘q ekan. Shu kunlarda aziz yurtimiz O‘zbekistonda Nurmuhammad degan bola bor ekan. U kechasi hovliga chiqib beg‘ubor osmondagi yulduzlarni tomosha qilishni yaxshi ko‘rarkan. Nurmuhammadning Maqsad ismli ukasi bo‘lib, u akasidan yulduzlar, sayyoralar sir-asrorlari haqidagi hikoyalarni zavq bilan eshitarkan. Ularning Dinora hamda Malika ismli yaqin do‘stlari bor ekan. Kunlardan bir kun to‘rtala do‘stlar aql bilan ish yuritib uchar ot – raketa yasabdilar. Bu raketa oddiy raketa emas ekan. U tovushdan ham tez uchib yorug‘likni quvib yetar ekan.

(Sahnaga Nurmuhammad, Maqsad, Dinora va Malika kirib kelishadi)

Dinora: Bolalar, qaranglar, raketamiz qanday ajoyib chiqdi.

Maqsad: Raketamizga qanday nom beramiz?

Malika: Raketamizga qo‘yadigan nomimiz juda jarangdor bo‘lishi kerak.

Nurmuhammad: Kelinglar, kemamizni “Istiqlol” deb ataymiz.

Dinora: Menga yoqdi.

Maqsad: Zo‘r nom.

Dinora: “Istiqlol” kemamizni sinab ko‘radigan vaqt keldi.

Maqsad: Ha, to‘g‘ri.

Nurmuhammad: Men Malika bilan koinotga sayohat qilaman.

Dinora: Biz esa ona yurtimizda turib sizlar yuborgan ma’lumotlarni boshqa tengdoshlarimizga yetkazishga va’da beramiz.

Maqsad: Aloqa uchun aqlli mashina kompyuter tarmog‘idan foydalanamiz.

Malika: Unda biz sayohatga yo‘l olaylik.

Maqsad: Hayr.

Dinora: Eson-omon qaytinglar.

(Ekranda raketa uchgan video tasvir namoyish etiladi)

Boshlovchi: Qani endi “Istiqlol” kemasi qaysi sayyoralarga sayohat qilganini bir tomosha qilaylik.

Ular tashrif buyurgan 1-sayyora eng yorug‘ yulduz yonida joylashgan “Bolalik” sayyorasi edi.

Malika: Nurmuhammad, qara, axir bular biz o‘qigan ertaklar qahramonlari-ku.

Nurmuhammad: Ha, kel ular yoniga borib nima haqida bahslashayotganlarini bilamiz.

Bolalar: Assalomu alaykum.

Bilmasvoy: Sizlar kimsizlar?

Qimmat: Qayerdan keldingizlar?

Qizil qalpoqcha: Nima maqsadda keldlaring?

Nurmuhammad: Mening ismim Nurmuhammad.

Malika: Meniki Malika.

Nurmuhammad: Biz Yer sayyorasidan, O‘zbekiston degan yurtdan keldik. Maqsadimiz o‘zimiz yaratgan “Istiqlol” kemasida koinotga sayohat qilish.

Buratino: Biz bu yurt haqida eshitganmiz.

(Musiqqa yangraydi)

Nurmuhammad:

Mehnatkash, bag‘rikeng yurtldoshlarimiz,

Bilimdonu, intilgan yoshlarimiz...

Obod shaharlar-u qishloqlarimiz,

O‘zbekiston baxti borlar o‘lkasi.

Malika: Har kun uylarda bo‘lar tantana,

Milliy urf-odatlar bo‘lgan an’ana.

Baxtliman deymiz yana va yana,

O‘zbekiston baxti borlar o‘lkasi.

Bilmasvoy: Dunyoda yuzlab davlatlar bisyor,

Ularning ichida O‘zbekiston bor.

Qizil qalpoqcha: U yurt insonlari mehribon, sofdil,

Yuzlarda tabassum, yayraydi ko‘ngil.

Qimmat: Ayrim yurtlarda-chi qo‘rqinchli dahshat,
Urushlar bo‘lmoqda yo‘qdir halovat.

Buratino: O‘zbekistonda esa hamisha tinchlik,
Xalqi qalbida faqat ezgulik.

Malika: Xo‘sh, sizlar nima haqida bahslashyapsizlar?

Qimmat: Bugun Kichkina Shahzodaning tug‘ilgan kuni,
shunga nima sovg‘a qilishni bilmayapmiz.

Qizil qalpoqcha: Balki unga onam pishirgan somsalardan
olib borarmiz.

Buratino: Yo‘q, qo‘zichoq olib boramiz. U qo‘zichoqlarni
yaxshi ko‘radi.

Bilmasvoy: Axir uning qo‘zichog‘i bor-ku.

Nurmuhammad: Kelinglar, unga kitob sovg‘a qilamiz.

Malika: Ha, raketamizda ajoyib ertak kitob bor, istasanglar
shuni sovg‘a qilishimiz mumkin.

Qimmat: Rozimiz, kitobdan yaxshiroq sovg‘a bormi?

Barcha: Tug‘ilgan kuning bilan tabriklaymiz, Kichkina
Shahzoda.

Kichkina Shahzoda: Raxmat, kelinglar aziz mehmonim
bo‘linglar.

(Murod doira chaladi, Munira raqsga tushadi, o‘yin yarmida
Qimmat ham raqsga qo‘shilib ketadi)

*(Nurmuhammad va Malika ertak qahramonlari bilan
xayrlashishadi.)*

Boshlovchi: Bazmdan so‘ng bolalar o‘z sayohatlarini davom
ettirish maqsadida ertak qahramonlari bilan xayrlashib, o‘z
sayohatlarida davom etdilar. Ular tashrif buyurgan ikkinchi
sayyora “Sehrli raqamlar” sayyorasi edi.

Malika: Nurmuhammad nima uchun bu sayyoraning nomi
“Sehrli raqamlar”?

Nurmuhammad: Kel, buni so‘rab bilib olamiz.

Malika: Nima uchun sayyorangizning nomi “Sehrli
raqamlar”?

Munira: Chunki dunyoni sonlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Sonlar esa raqamlardan tashkil topgan. Keling, ular bilan tanishamiz.

Parizoda: Hisob ilmin boyitdi,
O'n dona mashhur raqam
Sonlar, raqamlar ila
Ma'nolidir bu olam.
Raqamlar – o'nli sanoq sistemasining yuragi,
Odamlar uchun xizmat qilmoq erur tilagi.

Raqamlar:

Bir: Bir degan sanoq sonman,
Sanash uchun osonman.
Bitta yurak, bitta bosh,
Bitta oyu, bir quyosh.
Ona – Vatan – yagona,
Kurramiz ham bir dona.
Bittadandir har inson,
Qo'shilsa – ming, million.
Yozishgayam o'ng'ayman:
Qoziqchaga o'xshayman.

Ikki: Ikki degan nomim bor,
Ikki bir – men tayyor.
Ikkita qo'l, ikki oyoq,
Ikki ko'z, ikki quloq.
Ota-ona ikki jon,
Ikkisi ham mehribon.
Juft bo'ladi ikki toq,
Meni yaxshi bil o'rtoq!
Nimaga o'xshayman, xo'sh?
Xuddi ko'ldagi oqqush.

Uch: Uchta birman, nomim-uch
Birlashganda bo'lar kuch.
Uchgacha sanayman der,
Shart o'ynagan har bir sher.
Uch bor o'qilsa duo

Dilimizga bo‘lar jo.
Uchga kirsam chaqaloq,
Qanday shirin, baqaloq!
Yozish qiyinmas uncha:
Tishlangan ikki kulcha...

To‘rt: Men to‘rt degan raqamman,
Ikkita ikkidandan jamman.
Bo‘lsa ikki juft o‘rtoq
To‘rtta ulfat o‘sha choq.
Otning bor to‘rt oyog‘i
Yaqin bo‘lar yirog‘i
Bir yilda bor to‘rt fasl,
Bir-biridan asl.
Bir belbog‘li narvoncha,
Qo‘li belda – polvoncha.

Besh: Besh degulik nomim bor,
Raqamlar ichra ilg‘or.
Bir-bir qo‘shsa– anchaman,
Qo‘ldagi besh panjaman.
Doim olsang besh baho,
O‘qishing bo‘lar a’lo!
Besh qit’a bo‘lsa o‘rtoq,
Tinch bo‘lar yaqin-yiroq.
Yaxshi tirish yozmoqqa:
Sal o‘xshamay qarmoqqa.

Olti: Beshdan keyin – oltiman,
Ikkita uchni qo‘shsang- bas,
Hech qachon sedan chiqmas.
Ota-ona, to‘rt bola –
Olti odam – oila.
Olti yoshlik Muborak,
Sanash uchun men kerak!
Yozishni lozim bilmoq:
Go‘yoki oddiy ilmoq...

Yetti: Mening nomimdir yetti,

Demanglar aslo mitti.
 Oltidan bitta koʻpman,
 Yetti yulduzman, toʻpman.
 Yetti kun hafta boʻlar
 Haftalardan oy toʻlar.
 Yetti yoshda albatta,
 Sen borasan maktabga.
 Chizgin-da kichik oʻroq,
 Beliga bogʻla belbogʻ.
Sakkiz: Sanamay demang sakkiz,
 Ikki toʻrtni qoʻshsangiz-
 Hosil boʻladi shu on,
 Yaxshi bilgin, ukajon.
 Men - yettining akasi,
 Sanoq sonlar sarasi.
 Sakkizga yetsa yoshing,
 Oʻqiysan sinf oshib.
 Yozilishim bil, qani,
 Tasavvur qil pillani.
Toʻqqiz: Men toʻqqizman, toʻqqizman,
 Sonlar ichra yolgʻizman.
 Sakkizdan bitta katta,
 Bilib qoʻying albatta.
 Uch joyda uch boʻlsa ham
 Hosil boʻlaman shu dam.
 Kim kirsam toʻqqiz yoshga
 Aqli toʻladi boshga.
 Yozishni oʻrgan asta:
 Ilmoqman dumi pastda.
Nol: Diqqat, mening nomim – Nol,
 Oʻquvchi, sen ogoh boʻl.
 Yolgʻiz tursam – yoʻqman men,
 Sherik boʻlsa – toʻqman men.
 Oldimda tursa akam
 Zoʻr boʻlaman chinakam.

O‘nu yuz, ming, million,
Qo‘shaversang—oshar son.
Dum-dumaloq chizsang bas
Meni yozish qiyinmas!

So‘ngso‘z

Sanoq sonlar suhbatlari,
Juda uzoq cho‘zildi.
Har biri navbat olib,
Maqtanishib suzildi.
Bizning ulug‘ bobolar,
Allomalar, donolar,
Xorazmiy, Al-Farg‘oniy,
Ulug‘bek, Ko‘ragoniy...
Yana ne-ne olimlar,
Son haqida bilimlar-
Sohasin boyitishgan.
Ko‘p asarlar yozishgan.
Sonlar-la bo‘lsang o‘rtoq,
Kayfiyating bo‘lar choq!
“Dunyoni bilish kerak,
Hisobin qilish kerak!”

(Sahnaga o‘qituvchi va ikki o‘quvchi chiqadi)

O‘qituvchi: Assalom, o‘quvchilar.

O‘quvchilar: Assalomu, alaykum.

O‘qituvchi: Bugun sizlar bilan ko‘paytirish jadvalini takrorlaymiz. Qani, Nurullayeva tur, 7 ni 8 ga ko‘paytirsak necha bo‘ladi?

(O‘quvchi javobini o‘ylanadi, yonidagi o‘quvchidan so‘raydi, javobini topolmaydi)

O‘qituvchi: O‘tir ikki!

(O‘quvchilar jo‘r ovozda “Ikki qo‘ymang o‘qituvchim” qo‘shig‘ini kuylashadi.)

O‘qituvchi: Mayli, buguncha qo‘ymay turaman. Keyingi darsgacha yodlab kel.

Boshlovchi: Ikki o‘rtoq Nurmuhammad va Malika “Sehrli raqamlar” sayyorasidagi o‘rtoqlarini o‘z sayyoralariga mehmonga taklif qilib, ular bilan xayrlashishdi. Ular tashrif buyurgan keyingi sayyora “Nodir boylik” sayyorasi edi. Tomosha qilamiz.

Nurmuhammad: Bu qaysi sayyora?

Malika: “Nodir boylik” sayyorasi.

Nurmuhammad: Nima uchun bunday nomlangan.

Malika: Kel, yaxshisi buni so‘rab bilib oilamiz.

(O‘quvchi chiqadi. Bolalar salomlashishadi.)

Malika: Bu sayyora “Nodir boylik” sayyorasimi?

O‘quvchi: Ha, xuddi shunday.

Malika: Nima uchun sayyorangizga bunday nom bergansizlar?

O‘quvchi: Qani, o‘zlaring bir o‘ylab ko‘ringlar-chi, bu nodir boylik nima ekan?

Nurmuhammad: Balki, hech bir sayyorada yo‘q biron-bir boylik bordir.

O‘quvchi: Bu boylik odamlar yashaydigan joyda bo‘ladi.

Malika: Bu topishmoqning javobini o‘zing aytaqol.

O‘quvchi: Bu nodir boylik tildir.

Birgalikda: Til?

O‘quvchi: Til insonlar o‘rtasidagi muloqot vositasigina emas, balki millatning shakllanish va rivojlanish belgisi iftixoridir. Til davlatlarning ramzlari qatorida turadigan, qonun yo‘li bilan himoya qilinadigan muqaddas timsollardan biridir.

Feruza: Til xalqning shavkat-shoni

Bu bobolar kalomi

Ona tilim unvoni

Davlat tili maqomi.

(O‘quvchilar jo‘r ovozda “O‘zbek tilim –o‘z tilim” qo‘shig‘ini kuylashadi.)

SAHNA KO'RINISHI:

O'g'il: Eh, bu lan'ati misol

Boshimni aylantirdi,

Ko'zimni chaqchaytirdi

Yordam bering, dadajon.

Dada: O'g'lim boshingni ko'tar,

Yolg'izmassan men bilan.

O'g'il: Mashqlardan kesimni

Tagin chizish buyurishdi

Iltimos oyijonim

Yordam bering siz menga.

Ona: Siqilma, o'g'ilginam,

Topamiz shu kesimni.

Bir amallab aniqlab

Tagini ha chizamiz

O'g'il: Buvijon, siz uxlamang

Mana sizga mo'yqalam.

Ertakdan rasm chizing

Zanjir ustida mushuk.

Buvi: Yo'q, qaridim, ko'zim xira.

(Bola yig'laydi)

Buvi: Mayli, chizamiz mushuk.

O'g'il: Mayli, endi men biroz

Hovlida o'ynab kelay.

Charchab ketdim-ku axir,

Birpas dam olib kelay.

Mehriniso: Ertalab quvnoq Tursun,

Yelkada sumka bilan

Maktabga shoshar edi.

Ammo afsus va g'amgin

Qaytib keldi maktabdan.

Ona: Nima qildi, jon bolam?

O'g'il: Mana o'zingiz ko'ring.

Dada: Yo'q avval o'zing aytgin.

O'g'il: Dada sizga 5, oyi oldingiz 4, buvi sizga 3.

Dada: O‘zingga-chi, o‘zingga?

O‘g‘il: Axir bilmaysizmi, maktabda o‘qish qiyin-ku.

Hamma: Siz bo‘lmasangiz onajonlar,

Siz bo‘lmasangiz dadajonlar,

Zerikarli bo‘lar o‘qish,

Siz bo‘lmasangiz agar

Qiziqarsiz bo‘lar maktab.

“Mo‘jiza” sayyorasi

O‘rmon manzarasi slaydda ko‘rsatiladi. Hayvon kiyimini kiygan o‘quvchilar sahnaga chiqishadi.

Malika: Bu yer o‘rmonmi?

Nurmuhammad: Yo‘q, bu “Mo‘jiza” sayyorasi. Bu yerdagi hayvonlar odamlar tilida gapira oladilar.

Malika: Ishonmayman.

Yo‘lbars: Nega, ishonmaysan, bu sayyoradagina barcha hayvonlar va o‘simliklarni tiliga tushunish mumkin.

(Mushuk kiyimini kiygan qizlar “Rain, rain go away” qo‘shig‘iga raqsga tushadilar)

Sahna ko‘rinishi namoyish etiladi: (sahnada maymuncha plansheti bilan o‘tiradi)

Zamonaviy muchal to‘y.

Maymun muchal to‘y qildi,

Ayni ko‘klam paytida.

Yaqin-yiroq mehmonlar,

Maymunchaning saytida.

Olis shimoldan Lolo

Yaxmalak rasmin qo‘ydi.

Jasminning bananidan,

Maymunning ko‘zi to‘ydi.

Mauglida ham meva,

Ajoyib ta‘mli mango.

Sohibjamol va Maxluq-

Tushib berishdi tango.

Zumrad sandig‘in ko‘rib,

Mezbon aqldan ozdi.
Saxiy, mehribon dehqon –
“Ochil dasturxon” yozdi.
Shunday qilib kun bo‘yi,
Do‘stlar toshdi himmati.
Eh, afsuski, planshetning,
Tugab qoldi quvvati.

Malika: Mo‘jiza sayyorasi haqiqatdan ham mo‘jizaviy ekan.

Nurmuhammad: Havosi ham juda yoqimli ekan.

Asaloy: Chunki biz doim oltin qoidalarga rioya qilamiz.

Malika, Nurmuhammad: Qanday oltin qoidalar?

Sahnaga hayvon, gul va daraxtlar obrazidagi o‘quvchilar chiqishadi:

1-qoida: Tabiat boyliklarini asrang va avaylang, toki bu boyliklar kelgusi avlodga ham nasib etsin.

2-qoida: Maktab, hovli va ko‘chalarga daraxtlar ekib, parvarish qiling.

3-qoida: Uyda va sinf xonalarida gullar o‘stiring va ko‘paytiring.

4-qoida: Ariq va suvlarga axlat tashlamang.

5-qoida: Kuzda daraxtlarning to‘kilgan barglarini yondirmang.

6-qoida: Qushlar uchun uya yasab, daraxtlarga osib, ularga don berib turing.

Malika: Endi biz ham bu oltin qoidalarga rioya qilamiz.

Nurmuhammad: Tengdoshlarimizga ham bu haqida gapirib beramiz.

Boshlovchi: Bugungi sayohatimizning so‘nggi manziliga ham yetib keldik. Bu sayyora “Nafosat” sayyorasi

(Sahnada o‘quvchilar sport mashqlarini bajarib turishadi; kurashchi, bokschi, gimnastikachi va tennischilar, sportchilarga oid qo‘shiq qo‘yladi.)

Nurmuhammad: Bu yerda nimalar bo‘lyapti?

Malika: Menimcha, bu bolalar ushbu sayyoraning yulduzlari bo'lishsa kerak.

Nurmuhammad: Yur, ular bilan tanishamiz.

Birgalikda: Assalomu alaykum, bolalar.

Nurmuhammad: Biz Yer sayyorasidan tashrif buyurdik.

Malika: Bu sayyorada barchangizning sport bilan shug'ullanishingiz rostmi?

Umid: Ha, axir sport sog'lik garovidir.

Parizoda: Sizlar yashayotgan sayyorada sportga qanchalik e'tibor qaratilgan?

Nurmuhammad: Ming bor eshitgandan ko'ra bir bor ko'rgan afzal. Planshetimda bu haqida ajoyib ma'lumotlar bor.

(Ekkranda mashhur sportchilar haqidagi qisqa videolavha namoyish etiladi)

Shohsanam: Sportga bu darajada e'tibor qaratilgan davlatning yoshlari sog'lom bo'ladi.

Malika: Biz endi yurtimizga qaytaylik.

Suhrob: Bizning aziz mehmonimiz bo'linglar.

Nurmuhammad: Yo'q, yurt sog'inchi hamma narsadan ustun.

Malika: To'g'ri aytasan, men ham uyimni juda qo'msadam.

Nurmuhammad: Xayr do'stlar, sizlar bilan tanishganimizdan xursandmiz.

Malika: Yer sayyorasiga borganda go'zal O'zbekistonga ham tashrif buyuringlar.

Hamro: Yoshlarga keng imkoniyatlar yaratib bergan betakror yurtni ko'rish doimo qo'li ko'ksida turadigan mehmondo'st bolajon xalqi bilan tanishish niyatida bizlar, albatta, O'zbekistonga mehmon bo'lib boramiz.

Nurmuhammad: Ko'rishguncha...

Dinora: Omon boringlar.

(Barcha o'quvchilar sahnaga chiqishadi. Ekkranda "O'zbekistonim" qo'shig'i yangraydi. O'quvchilar birga kuylashadi.)

“O‘ZBEKISTON – JONAJON VATANIM”

Sahna bayramona bezatilgan, devorlarda yurtimiz obodligi, mustaqillik yillaridagi yutuqlar aks etgan suratlar, Vatan haqida maqollar yozilgan plakatlar osilgan.

Boshlovchi: - Assalomu alaykum, hurmatli mehmonlar, qadrli ustozlar, aziz o‘quvchilar! Bugun biz sizga “O‘zbekiston-jonajon Vatanim” nomli tadbirimizni havola qilmoqchimiz.

(O‘zbekiston Respublikasining davlat madhiyasi yangraydi).

Boshlovchi:-Vatan... ne-ne aziz insonlarni voyaga yetkazgan, buyuk allomalar, sarkardalar beshigi bo‘lgan zamin. El borki, Vatan bor. Vatan borki, el bor. Elsiz Vatan biyobon, Vatansiz el- darbadar. Shuning uchun qadimda elim, deya Vatanni e‘zoz etganlar, el qadri bilan yashagan kishilarni vatanparvar, deya ardoqlaganlar.

1-o‘quvchi: - Begona yurtga bahor ham go‘zalmas.

2-o‘quvchi: - Kishi Vatansiz, bulbul qo‘shiqsizdir.

3-o‘quvchi: - Yashash-Vatanga xizmat qilish, deb bejiz aytilmagan.

Boshlovchi: - Jonajon yurtimizni mustaqil Vatan deb ataymiz. Bu ko‘hna diyor torlarini shundayin chertib yubordiki, endi uning sehrli sadolaridan dunyo mamlakatlari ko‘z o‘ngida O‘zbekiston siymosi namoyon bo‘lmoqda. Bugun biz istiqbolimizni, erkimizni, mustaqilligimizni sharaflaymiz. Bayramimizni qo‘shiqlarda, she’rlarda kuylaymiz.

(“Men nechun sevaman O‘zbekistonni?” qo‘shig‘i yangraydi).

O‘quvchilar Iqbol Mirzoning “Ona tuproq” she’rini o‘qib berishadi.

1-oquvchi:-Avliyolar, daholarning beshigisan,

Naqshbandlar topgan jannat eshigisan.

Tiriklikning navosi, ham qo‘shig‘isan

Sen azizsan, muqaddassan, ey sajdagoh,

O‘zbekiston, ota makon, ona tuproq!

2-o'quvchi:-Yuragimda tulporlaring dukurlari,
Qaysi yurtning bordir buyuk Temurlari?
Olovlardan omon chiqqan Semurg'lari,
Sen azizsan, muqaddassan, ey sajdagoh,
O'zbekiston, ota makon, ona tuproq!

3-o'quvchi: - Kimlarningdir ko'ragida tumor bo'lding,
Kimlarningdir kiprigida g'ubor bo'lding,
Gohida mart bir o'g'longa humor bo'lding,
Sen azizsan, muqaddassan, ey sajdagoh,
O'zbekiston, ota makon, ona tuproq!

4-o'quvchi: - Asl farzand merosiga posbon bo'lgay,
Ozod elning orzulari osmon bo'lgay,
Bobolarim ismin aytsam doston bo'lgay,
Sen azizsan, muqaddassan, ey sajdagoh,
O'zbekiston, ota makon, ona tuproq!

5-o'quvchi: - Ota uyin farog'atin bilmaganlar-
Ikkisi bir bir ikki bo'lmaganlar,
Tuproqtegi bo'lib zor-zor yig'laganlar...
Sen azizsan, muqaddassan, ey sajdagoh,
O'zbekiston, ota makon, ona tuproq!

6-o'quvchi: - Daryolaring izlarida daryo bo'lgay,
Daholarning avlodi ham daho bo'lgay!
Fido bo'lsa, shu Vatanga fido bo'lgay,
Fido bo'lsa, shu Vatanga fido bo'lgay:
O'zbekiston, ota makon, ona tuproq!

Boshlovchi: - Mustaqil O'zbekiston Respublikasi o'z davlat
ramzlari: madhiyasi, gerbi, bayrog'i va bosh qomusi-
Konstitutsiyasiga ega. O'zbekiston Respublikasining davlat
bayrog'i Oliy Majlisning navbatdan tashqari o'tkazilgan VII
sessiyasida 1991-yil 18-noyabr kuni tasdiqlangan.

1-o'quvchi: - Bayrog'imda moviy rang
Samodan berar darak.
Har rangida doimo,
Yaxshiliklar mushtarak.

2-o'quvchi: - Moviy rang - tiriklik manbayi bo'lgan obihayotni, musaffo osmonimizni aks ettiradi.

3-o'quvchi: - Bayroqdagi oq rang muqaddas tinchlik ramzidir. Oq rang poklik, beg'uborlik, soflikni bildiradi.

4-o'quvchi: -Yashil rang yasharish, yangilanish ramzidir. Ko'p xalqlarda u navqironlik, umid va shodlik timsoli hisoblanadi.

5-o'quvchi: - Qizil chiziqlar vujudimizdagi jo'shqin urib oqayotgan hayotiy kuch-qudrat irmoqlaridir.

6-o'quvchi: - Navqiron yarim oy tasviri bizning tarixiy qadriyatlarimiz, umrboqiy an'analarimiz, ma'naviy kuch – qudratimiz bilan bog'liq. Hilol qo'lga kiritilgan mustaqillik, ozodlikni ifodalaydi.

Boshlovchi: - O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi Oliy Majlisning X sessiyasida 1992- yil 2- iyul kuni tasdiqlangan.

1- o'quvchi: - O'zbekiston gerbida

Bor mag'rur humo qushi

Shu sabab o'zbekimning,

Ezgulik mudom ishi.

Sakkiz qirrali yulduz,

Tun emas, yorug' kunduz,

Boshoqlar bor bir yoqda,

Bir yonida g'urur-paxta!

2-o'quvchi: - 1992-yil 8-dekabrda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilindi. 1992-yil 10-dekabr kuni esa yurtimiz o'z Davlat madhiyasiga ega bo'ldi.

Boshlovchi: - Vatanni sevish deganda ...

1-o'quvchi: - O'z xalqining tarixini yaxshi bilish va u bilan faxrlanish...

2-o'quvchi: - Qadimiy obidalar, ko'hna imoratlar, ajdodlar yaratgan boy moddiy merosni ko'z qorachig'iday asrash...

3-o'quvchi: - Go'zal urf- odat, rasm-rusum va udumlarni qadrlay bilish, ularni davom ettirish tushuniladi.

Boshlovchi: - Vatanni har kim o'zgacha sevadi. Lekin yurtga muhabbatni qay yo'sinda ifoda qilishdan qat'iy nazar, bu

aziz Vatan barchamizniki ekani, uning porloq kelajagi uchun barchamiz mas'ulligimizni hamisha yodda tutishimiz zarur.

(Muhammad Yusufning "O'zbekiston" she'ridan parcha bilan tadbir tugatiladi).

Boshlovchi: - Qalqoningmiz, qasd qilsa kim gar joningga,
Alpomishlar ruhi yor har o'g'loningga.
Asragaymiz giyohing ham gulday o'pib,
Yovlar yaqin yo'lolmagay qo'rg'oniga.

BARCHA: - Adoying bo'lgaymiz seni, O'zbekiston,
Hech kimga bermaymiz seni, O'zbekiston!

"MATEMATIK KECHA"

Sahna matematik raqamlar, turli amallar berilgan misollar bilan bezatiladi.

1-boshlovchi: Har sahar yangragan
Ulug' madhiyam.
Har satri hurmatga
To'liq madhiyam.

2-boshlovchi: Eng go'zal qo'shig'i
Ozod elimning,
Muqaddas madhiyam,
To'liq madhiyam.

(Sahnaga bayram libosida bolalar kirib kelishadi. Ular tomonidan madhiya kuylanadi.)

(Jarchi kiyimidagi bolalar kirib kelishadi).

1-jarchi: - E-he-he-e-e-y,
Eshitmadim demang-l-a-r,
Bayramlarni suyganlar,
Bu kungi tantana-yu.

Tomoshaga kelganlar
Hali zamon bir olam,
Shodliklarga to'lasiz
Zo'r tomosha ko'rasiz

2-jarchi: - Odamlar-u odamlar,
Eshitmadim demanglar.

Eshitganlar jilmanglar.
Bugun bizning maktabda
Bayram bo‘ladi katta.
Matematika ertaligiga
Siz ham keling, albatla.

2-boshlovchi: Rahmat, bilimdonlarim,
Rahmat, bolajonlarim.

1-boshlovchi:-She’riy topishmoglar va magollarimizdan ham
aytib, matematik o‘yinlar o‘ynab bobojonlarimizni xursand
qilaylik.

(Bolalar bir-birlari bilan savol javob qiladi)

SONLI MAQOLLAR.

O‘quvchi: -Sanamay sakkiz dema!

O‘quvchi: - Bir yil tut ekkan kishi Yuz yil gavhar teradi.

O‘quvchi: - Bir mayizni qirq kishi bo‘lib yebdi

O‘quvchi: - Yetti o‘lchab bir kes!

O‘quvchi: - Ikki o‘n besh-bir o‘ttiz.

O‘quvchi: - Bilagi zo‘r birni yengar, bilimi zo‘r mingni.

O‘quvchi: - Oltovlon ola bo‘lsa, og‘zidagin oldirar,

To‘rtovlon tugal bo‘lsa, unmaganni undirar.

O‘quvchi: - Bir top tok eksang, Bir top tol ek.

O‘quvchi: - Ko‘p og‘iz bir bo‘lsa, Bir og‘iz yengilar

O‘quvchi: - Bir kun tuz yegan joyingga, Qirq kun salom qil.

O‘quvchi: - Birniki mingga, mingniki tumanga.

O‘quvchi: - Bir kattaning gapiga kin, bir kichikning.

O‘quvchi: - Bir tomchi suv, chumoliga daryo ko‘rinibdi.

O‘quvchi: - Uyida bir chaqasi yo‘q, belida bir dasta kalit.

O‘quvchi: - Bir molni uch mart so‘ymaydilar.

2-boshlovchi: -Navbat quvnoq topishmoglarga.

O‘quvchi savoli: Uch juft qiz-u, bir o‘g‘il,

Uch tupdan gul ekishdi.

Har bir gulning ustiga

Bir chelak suv to‘kishdi.

Suvning uchdan birini

Tashidi chevar gizlar.
Qolganini o'g'illar.
Qani top, Barno, Safar,
Birgalashib o'g'il-qiz
Nechta gul ko'chat ekkan?
Eng mehnatsevar o'g'il
Necha chelak suv to'kkan?

O'quvchi javobi: - 21 chelak suv to'kkan.

O'quvchi savoli: Toqqa chiqdik 40 bola,
4 dan biri qiz bola.

O'g'illarning har biri,
Terib 10 tadan lola.

Qizlar terdi 100 dona,
Ayt-chi, qizim Hilola,
Nechtadir jami lola?

O'quvchi javobi: 400 ta lola

O'quvchi savoli: 7 kg paxta og'irimi, 7 kg temirmi?

O'quvchi javobi: Teng

O'quvchi savoli: Ushbu 1, 2, 3, 4, 5, ..., 9, 10, 11., 99 sonlar
qatorida 8 raqami necha marta uchraydi?

O'quvchi javobi: 20 marta

O'quvchi savoli: 13 ta olmani 13 kishiga shunday bo'lib
boring, ularning har biriga bittadan olma tegsin va savatda bitta
olma qolsin.

O'quvchi javobi: 1 kishi olma turgan savatni oladi.

O'quvchi savoli: Laylak bir oyoqda tursa 10 kg keladi, ikki
oyoqda tursa necha kg keladi?

O'quvchi javobi: 10 kg.

O'quvchi savoli: 6 metr uzunlikdagi yog'ochni 1 metrdan
gilib necha marta arralash kerak?

O'quvchi javobi: 5 marta

O'quvchi savoli: Soatning katta strelkasi 6 da turibdi, 48
soniyadan keyin u nechani ko'rsatadi?

O'quvchi javobi: Yana 6 ni ko'rsatadi.

O‘quvchi savoli: Siz 24-martdan ta’tilga chiqdingiz, 31-mart kuni yana maktabga qaytadingiz. Necha kun ta’tilda bo‘ldingiz?

O‘quvchi javobi: $31 - 23 = 8$ kun.

O‘quvchi savoli: 21 metr uzunlikdagi yerga 3 metrdan oraliq nechta terak ko‘chatlari ekish mumkin?

O‘quvchi javobi: 8 ta

O‘quvchi savoli: Agar kechasi soat 2 da yomg‘ir yog‘ayotgan bo‘lsa, 72 soatdan keyin quyosh chiqishi mumkinmi?

O‘quvchi javobi: Yo‘q, 72 soatdan keyin yana kechasi bo‘ladi.

O‘quvchi savoli: 1 ta tuxum 4 minutda pishadi. Shunday 2 ta tuxumni pishirish uchun necha minut kerak bo‘ladi?

O‘quvchi javobi: Birga pishirilsa 4 minut vaqt ketadi.

O‘quvchi savoli: Bir oyda necha marta yakshanba kuni keladi?

O‘quvchi javobi: 4 yoki 5 yakshanba kun keladi.

O‘quvchi savoli: 3 ta bir xil raqam yordamida mumkin bo‘lgan eng katta uch xonali sonni yozing.

O‘quvchi javobi: 999.

O‘quvchi savoli: 9-mart kuni 9 ta gul sotib olindi, bu gullarni ikki ona va ikki qizga teng qilib berish mumkinmi?

O‘quvchi javobi: 3 tadan gul beriladi. (Ona, uning qizi, nevara qiz)

O‘quvchi savoli: Aka-ukalar o‘tin arralashdilar. Ular har bir xodani besh bo‘lak gilib arralashdi. Har bir bo‘lakni arralash uchun 3 minut vaqt ketadi. Ikkita xodani arralash uchun qancha vaqt ketgan?

O‘quvchi javobi: 24 minut.

O‘quvchi savoli: Ikki ota va ikki o‘g‘il nonushtaga uchta tuxum yeyishdi. Bunda ularning har biri bittadan tuxum yedi. Nega shunday?

O‘quvchi javobi: Ular 3 ta: bobo, o‘g‘il, nabira.

O‘quvchi savoli: 1 kg 1 tiyinliklar og‘irmi yoki yarim kg 3 tiyinlikmi?

O‘quvchi javobi: Ikkalasi teng

O'quvchi savoli: Ikki qo'y gator turibdi. Birining boshi shimolga, ikkinchisidiki esa janubga qaragan. Qo'ylar boshlarini burmay turib bin-birlarini ko'ra oladilarmi?

O'quvchi javobi: Ko'ra oladilar, chunki, ular bir-biriga garab turishibdi.

O'quvchi savoli: Otasi 41 yoshda, katta o'g'il 13 yoshda, qizi 10 yoshda, kichik o'g'il 6 yoshda, necha yildan keyin otasining yoshi hamma farzandlarining yoshlari yig'indisiga teng bo'lib qoladi?

O'quvchi javobi: $41 + x = 29 + 3x$: $x = 6$ yildan keyin.

O'quvchi savoli: Ruchka qalamdan 4 so'm qimmat turadi. 5 ta qalam qancha tursa, 3 ta ruchka shuncha turadi. Ruchka qancha turadi?

O'quvchi javobi: 10 so'm.

O'quvchi savoli: Akasida 5 ta uch so'mlik, singlisida esa 5 ta 5 so'mlik bor. Akasi bilan singlisining pul teng bo'lishi uchun singlisi akasiga qancha pulni berishi kerak?

O'quvchi javobi: 1 ta 5 so'mlik berishi kerak.

O'quvchi savoli: Bir yilda eng ko'pi bilan necha marta yakshanba keladi?

O'quvchi javobi: 53 yakshanba.

O'quvchi savoli: Agar odam bir minutda 100 dona bug'doyni sanasa, 1 milliard dona bug'doyni sanash uchun qancha vaqt kerak bo'ladi?

O'quvchi javobi: 50 yilga yaqin vaqt kerak bo'ladi.

O'quvchi savoli: Yerga 15 ta yong'oq qo'yildi. Ikki o'yinchini har biri navbat bilan 1 ta, 2 ta, 3 ta yong'oq olishi mumkin. Kimki oxirgi bitta yong'oqni olishga majbur bo'lsa yutqazadi. Buning uchun o'yinni boshlovchi nechta yong'oqni olishi kerak?

O'quvchi javobi: 2 ta yong'oqni olishi kerak.

O'quvchi savoli: Birinchi xaltada 15 ta ko'k, ikkinchisida esa 12 ta oq shar bor. O'ynovchi bir olganda 2 ta oq yoki 3 ta ko'k sharni olishi mumkin. Sharni olgan o'yinchi yutadi. G'olib chiqishlik uchun o'yinni boshlovchi qanday boshlashi kerak?

O'quvchi javobi: Ikkita oq shar olishdan boshlash kerak.

O‘quvchi savoli: Xaltada 6 ta oq va 10 ta havorang paypoqlar aralashib yotibdi. Hech bo‘lmaganda bir juft bir xil rangdagi paypoqni xaltaga qaramasdan olish uchun eng ozi bilan nechta paypoq olish kerak.

O‘quvchi javobi: Uchta paypoq olinsa kifoya qiladi.

(Musobaqa tartibida matematik o yin o‘tkaziladi, g‘olib chiqqan bolalar rag‘batlantiriladi.

“GULLAR VA QUSHLAR” BAYRAMI

Maktab sahnasi o‘ziga xos bayramona usulda chiroyli gullar va qushlar bilan bezatilgan, ohista musiqa yangraydi. Sahnaga ikki boshlovchi chiqib keladi.

1-boshlovchi: (Gullarga qarab) – Do‘stim, qarang, bu qadar go‘zal manzara. Bu qadar go‘zal gullar. Bular tabiatning chin mo‘jizasi emasmi?

2-boshlovchi: - Ha, to‘g‘ri aytdingiz, gullar haqiqiy go‘zallik timsolidir. Bugungi bayramimiz ham ana shu tabiatning nodir mo‘jizasi-gullar nomi bilan ataladi. Qarang, bayramga qancha mehmonlar yig‘ilishgan. Keling, ular bilan salomlashaylik.

1-boshlovchi: - Assalom, deganda ochilgay gullar

Assalom deganda sayrar bulbullar

Assalom deganda quyosh kuladi,

Dillarga ezgulik nuri inadi.

2-boshlovchi:

- Assalom, davramizning siz aziz mehmonlari,

Assalom, ilm-u fanning sohibi davronlari!

Mo‘tabar otaxon-u onaxonlar, assalom!

Yuzlarga kulgu balqqan bolajonlar, assalom!

1-o‘quvchi: - Tinchlik bo‘lsin dunyoda,

Olam gullarga to‘lsin!

Biz kabi bolajonlar,

Bog‘larda o‘ynab kulsin.

2-o‘quvchi: - Bayramlarni sevamiz,

Bayramlar bizda bisyor.

Ezgu qalblar sevguvchi,

Yurtda hamisha bahor.

1-boshlovchi: - Bolalar, qaranglar, davramizga kim mehmon boʻlib keldi. (Sochlariga gul taqqan Bahoroy tashrif buyuradi va egilib salom beradi).

Oʻquvchilar: (joʻr ovozda): - Axir bu Bahoroy-ku!

2-boshlovchi: - Xush kelibsan, Bahoroy!

Bahoroy: (taʼzim qilgan holda).

Mana men, goʻzal bahor,

Yetib keldim sizlarga.

Jon kirdizdim daraxtlar-u

Gʻunchalar, ildizlarga.

Oppoq oʻrik gullarim bilan,

Iliq quyosh nurlarim bilan.

Kamalakday yetti tovlanib

Yashillanib, goh olovlanib,

Mehmon boʻlib keldim bolalar.

1-boshlovchi: Bahoroy bugun oʻquvchilarimiz siz, navroʻz, bahoriy bayramlar va hodisalari haqida sheʼrlar aytib sizni quvontirishmoqchi.

1-oquvchi: Oʻlkamga bahor kelgach

Koʻm-koʻk boʻldi bogʻ-dala.

Mayi shamolar esib,

Ochildi chechak, lola.

Suvlar oqar shildirab,

Dilga yoqar ovozi.

Koʻngilga berar orom

Qushlarning nagʻma sozi.

Qaldirgʻoch chugʻurlaydi,

Simyogʻochdan jilmayib.

Quyosh chiqib keladi

Har tong bizga jilmayib.

2-oʻquvchi: Bahor gullarida guldasta sizga

Chin qalbim tabrigi payvasta sizga

Bir asr yashang-u yana nim chorak

Doʻstlar Navrozingiz boʻlsin muborak.

3-o'quvchi: Bayramlarni sevamiz,
Bayramlar bizda bisyor
Ezgu qalblar sevuvchi
Yurtda hamisha bahor.

(Bahor haqida qo'shiq va raqs.)

1. Shamol: Shamol, shamol, shamolman
Sochlari to'ziq shamolman.
Bulutlarni to'zitib
Har tomonga o'kirib
Yelaman siz tomonga
Kuchim yetar har nega!

2. Chaqmoq: Gumbur-gumbur, gum-gumbur,
Go'yo toshlar sharaqlab.
Birdan chaqmoq charaqlab,
Tusha boshlar yer sari.
Bilaman bu toshlarning
Bittasi ham tushmaydi.
Bu guldurak, guldurak,
Jaladan berar dark.

3. Yomg'ir: Ey, kamtarin yomg'irjon,
Menga juda yoqasan.
Quvnab-quvnab sho'x kuylab,
Qay manzilga oqasan.
Moviy zilol suvingni,
Yerim qonib ichadi.
Shuning uchun hosilin,
Yurtim uzra sochadi.

4. Kamalak: Turfa rangli kamalak,
Yomg'irdan so'ng charaqlar.
Dillarni quvontirib,
Sochar rangin jilolar.

Bahoroy: Rahmat o'quvchilar, men haqimda ajoyib
ma'lumotlar va sherlar aytdingiz, bundan juda xursandman. Endi
men sizlar bilan uch oy davomida birga bo'lamiz.

2-boshlovchi: Bahoroy tashrifingiz uchun sizga ham rahmat.

1-boshlovchi: - Bolajonlar, gullar haqida she'rlar ham bilasizmi?

Bolalar: - Ha-a!

1-o'quvchi: Boychechak.

- Bahordan berding darak,
Oson bo'lmadi kutmak.
Senga talpinar yurak,
Sevgan gulim, boychechak.

2-o'quvchi: - Seni ko'rdim bog'larda

Baxmal adir, tog'larda
Yam-yashil o'tloqlarda.
Sen husnga boy chechak.
Boychechak, boychechak
Sevgan gulim, boychechak.

3-o'quvchi: - Lola, lola lolajon

Osar joying dalada
Lola, lola lolajon
Chidadingmi jalaga.

4-o'quvchi: Chuchmomaman, chuchmoma,

Ochilaman siz uchun.
Xushbo'y hidim taratib,
Ko'zingizmi yayratib

(Bog'bon ota kirib keladi va gullarga razm soladi).

Bog'bon ota: - Bolalar siz gullarni sevasizmi?

Bolalar: - Ha.

Bog'bon ota: - Ularga bir razm soling-a. qanday go'zal, qanday chiroyli. Endi gullar haqidagi fikringizni bilmoqchiman.

1-o'quvchi: - Bobojon, gul bor joyda go'zallik, tinchlik tabassum va shodlik hukm suradi.

2-o'quvchi: Go'zal tabiatni gullarsiz tasavvur etish qiyin, shuning uchun ularni doimo asrab avaylashimiz va ko'paytirishimiz lozim.

3-o‘quvchi: - Dalalarda, gulzorlarda gullarni uzishdan ko‘ra asrab avaylasak, bu chin go‘zallikni asrash emasmi? Biz gullarni uzsak ular so‘lib qoladi, undan ko‘ra ko‘zimizni quvontirib, ochilib tursa, qanday yaxshi. Ularni payxon qilishdan o‘zimizni tiyaylik.

4-o‘quvchi: - Haqiqatan ham gullarga, balki tabiatning barcha yashil boyliklariga, mehrli bo‘lmoq kerak. Insonlarning tabiatga shafqatsiz munosabat uchun ham hozirda yuzlab o‘simlik turlari “Qizil kitob”ga kiritilgan.

Bog‘bon ota: - Barakalla, bolajonlarim! Sizlarning teran fikrlaringiz meni xursand qildi. Siz kabi gul shaydolari kelgusida yurtimizni go‘zal chamanzorga aylantiradi. Men bunga ishonaman.

2-boshlovchi: - Dugonajon, o‘quvchilar gullar to‘g‘risida ko‘pgina ma’lumotlarga ega ekanlar.

1-boshlovchi: - Ha, to‘g‘ri aytdingiz. Bilasizmi, dugonajon bahor kelishi bilan yurtimizga juda uzoqlardan qushlar uchib keladi. Bugun, axir Qushlar bayramini nishonlayapmiz.

2-boshlovchi: Ha, qushlar bizning do‘stimiz. Keling, bolalar, qushlar haqida nimalarni bilishar ekanlar, so‘rab ko‘ramiz.

1-boshlovchi: - Bolalar qushlar haqida nimalarni bilasiz.

1-o‘quvchi: - Bahor kelishi bilan issiq mamlakatlarga uchib ketgan qushlar yurtimizga qaytib keladilar. Bularga qaldirg‘och, bulbul, zarg‘aldoq kiradi.

2-o‘quvchi: - Ko‘p qushlar esa yil davomida bir joyda yashaydilar. Bunday qushlarga chittak, musicha, ko‘k kaptar, kaklik, chumchuq kiradi.

2-boshlovchi: - Qushlar haqida she‘rlar ham bilasizlarmi?

3-o‘quvchi: Chug‘urchuqlar churqillaydi

Bulbullar sayrashadi.

Qaldirg‘ochlar kuylashadi.

Barcha qushlar jam bo‘lsa.

4-o‘quvchi: Chug‘ur-chug‘ur qaldirg‘och,

Eshigingni tezroq och.

Mana boshoq, mana don

Manziling shu xonadon.

5-o'quvchi: Turnalar ko'p sayraydi.

Chug'urchuqlar kuylaydi.

Shox – shabbalar qo'ynida

Oq turnalar o'ynaydi.

6-o'quvchi: Nima ekan bu qush nomi?

Suvlar to'qay o'rmoni

Qo'shiq aytar ku-ku,

Shu sababli nomi kakku.

Topishmoq:

1. Qanotlari momiq, par,

Xat tashuvchi, ham chopar.

Tog'-u sahro oshsa ham

Manzilin oson topar. (Kabutar)

2. Uzun tumshuq, oyoqi

Ta'rifiga so'z yetmaydi.

Shu sabab ham suvda u

Sira cho'kib ketmaydi. (Laylak)

3. Hazil-huzil qilishda

Ko'pdir unda malaka.

Shu sabab ham qushlarni

Qilib yurar kalaka. (Mayna)

SAHNA KO'RINISHI:

Muallif: Bir kuni chamanzorda bulbul o'zining sevimli maskani bo'lmish gullar bag'rida dildan jo'shib kuylab yurgan edi. U gullarni juda ham sevar ayni vaqtda gullar ham bulbulni yaxshi ko'rardilar. (*Qo'shiq*)

Muallif: Shu vaqtda Qashqar yurtining podshosi o'zining sodiq navkarlari bilan ov qilib yurib bulbulning ovozigga mahliyo bo'lib qolibdi va u o'zining oltin qafasiga solib olib ketishni xos navkarlariga buyurdi.

Shoh: Do'stlar, menga bulbulning

Ovozi yoqib qoldi.

Ko'pdan g'amgin dilimga

Shodlik-u, quvonch soldi.
Uni qafasga solib
Qasringa oib ketay,
Yoqimli ovozi-la
Hammani xushnud etay.
(Navkarlar gullarni tepkilab, bulbulni to'rga solib olib
ketadilar.)

Shoh: Sayra, qani ko'nglimni xushnud et.

Bulbul: Ne deb kuylay, ey shohim,

Bo'g'ildim men qafasda.

Eslarman men chamanim,

Har daqiqa nafasda.

Gullarimni sog'indim,

Sog'indim o'z yurtimni.

Har dam quvnoq va xushnud

Sayragan har kunimni.

(Qo'shiq "Vatan sog'inchi")

Shoh: Qancha g'amga qo'yibman-a,

O'ylamabman men yomon.

Kechir meni, bulbulginam,

Uchgun o'z yurtning tomon.

Bulbul: Raxmat shohim, raxmat.

**(Shoh chiqib ketadi, gullar sahnaga chiqishadi, bulbul
chamanzorga kiradi va qo'shiqning ovozi balandlantiriladi,
hamma o'ynaydi. Ta'zim bilan sahnani tark etishadi.)**

(Keyin o'quvchilar qushlar haqida ma'lumot beradilar).

1-o'quvchi: Qarg'a qushlar sinfining chumchuqsimonlar
turkumiga kiradi. Bular o'rmonlarda bog', park va daryo
bo'ylarida yashaydi. Qishda shahar va qishlarga kam keladilar.

2-o‘quvchi: Qirg‘iy, burgut yirtqich qushlar turkumining qarchig‘aylar oilasiga kiradi. Qirg‘iy Yevropa, Osiyo Afrikada tarqalgan.

3-o‘quvchi: Ukki yapaloqqushlar orasida eng yirigi. Boshining ustida quloqqa o‘xshash ikki to‘p pati dikkayib turadi. Ukki ko‘proq turli kemiruvchilar bilan oziqlanadi, ba‘zan o‘rgimchaklar va ayrim qushlarni ham tutib yeydi.

4-o‘quvchi: O‘rdaklar bundan 3000 yil oldin yovvoyi o‘rdaklardan kelib chiqqan. O‘rdak tuxumining ta‘mi uncha yaxshi bo‘lmaganligi sababli odatda go‘shti uchun boqiladi. O‘rta Osiyo uv suv havzalarida suqsar o‘rdaklar uchraydi.

5-o‘quvchi: Tovuqlar xonaki parrandalar orasida eng ko‘p boqiladi. Hozirgi tovuq zotlari tropik o‘rmonlarda yashaydigan yavvoyi bankiv tovuqlardan kelib chiqqan.

1-boshlovchi: Mana azizlar “Gullar va Qushlar bayrami”ga bag‘ishlangan kechamiz ham oxirlab qoldi. Aziz o‘quvchilar har birimiz tabiatga mehr-muruvvatli bo‘lishimiz va tabiatning tabiiy go‘zalligini saqlashimiz kerak.

2-boshlovchi: Tabiatni muhofaza qilish, uning boyliklaridan oqilona foydalanish har bir insonning muqaddas burchidir. Ona tabiatni asrang aziz o‘quvchilar!

(O‘quvchilar “Tabiatni asrang” qo‘shig‘i bilan kechani yakunlaydilar)

Mundarija

Jumaniyozova Muhabbat
Abdullayeva Adolat

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL QILISH

(Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar ssenariylari)

Muharrir	B. Botirov
Texnik muharrir	Dilshod Xo‘rozboyev
Dizayner	Bahodir To‘xliyev
Sahifalovchi	Bekzod Raxmatov

Nashriyot litsenziyasi: AI №234, 11. 02. 2013.

Bosishga ruxsat etildi: ...

Ofset qog‘ozi. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/16.

Times garniturası. Ofset bosma.

Hisob nashriyoti t.: 3,66. Shartli b. t.: 5,5.

Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 18.

“BAYOZ” nashriyotida nashrga tayyorlandi

“BAYOZ” MChJ matbaa korxonasida chop etildi.
100100, Toshkent. Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103-uy.